


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TALIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TABIATSHUNOSLIK VA GEOGRAFIYA FAKULTETI**



**Davletova Nargizaning
5440500 Geografiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

**MAVZU: QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI XALQARO
MUNOSABATLAR TIZIMIDA**

Ilmiy rahbar:

Рахимов А.К.

Urganch 2015 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARNING GEOGRAFIK JIHATLARI.....	6
1.1. Iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari.....	6
1.2. Hududlar kesimida iqtisodiy integratsiya va iqtisodiy hamkorlik.....	8
1.3. Markaziy Osiyo mamlakatlarining xamkorligida Shanxay hamkorlik tashkilotining roli.....	18
II BOB. QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI VA UNING XALQARO MUNOSABATLARDAGI ROLI.....	24
2.1. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni tashqi iqtisodiy aloqalarida transport va uning salohiyati.....	24
2.2. Quyi Amudaryo tashqi iqtisodiy aloqalarida Qoraqolpog'iston respublikasining tashqi savdo aylanmasi.....	32
2.3. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining xalqaro munosabatlarida Xorazm viloyati.....	39
XULOSA.....	51
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	53

Malakaviy bitiruv ishining 1-qism O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan keyingi yillarda, mamlakatda iqtisodiyotni, shu jumladan, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ldi.

Respublika tashqi siyosatining ajralmas qismi bo'lgan tashqi iqtisodiy aloqalar hozirgi kunda iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishi hisoblanib, u ichki iqtisodiy nisbatlarning balanslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda va asta-sekin iqtisodiy islohotlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni ham mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarida o'ziga xos o'ringa ega.

O'zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lganligi, xalqaro bitimlar, shartnomalarning o'z vaqtida imzolanganligi eksport va import operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilot va muassasalarning tashkil etilganligi tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirishdagi dastlabki qadamlar hisoblanadi.

Mamlakat hududidagi barcha sohalarda islohotlarni amalga oshirish uchun, O'zbekiston yetarli imkoniyatlarga – nisbatan qulay iqtisodiy geografik o'rniga, boy tabiiy va inson resurslariga hamda ma'naviy va ilmiy-texnikaviy salohiyatlarga ega.

Iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasi xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni taraqqiyotga yo'naltiruvchi mexanizm vazifasini o'tashini ko'rsatmoqda. O'tgan qisqa vaqt ichida respublikadagi xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni 4000 tadan oshdi. Dunyoning ko'plab mamlakatlariga qarashli xorijiy firmalar, bank va kompaniyalar vakolatxonalari ochildi.

Tashqi investitsiya resurslarini sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga jalb qilish, uning ishlab chiqarish ko'lami va samaradorligining ortishiga, bu esa o'z o'rnida eksport salohiyatining kengayishiga olib kelmoqda. Har bir mamlakatning rivojlanishi ma'lum darajada uning eksport salohiyatiga bog'liq. Shu o'rinda Prezident I.A.Karimovning: "Rivojlangan eksport quvvatisiz O'zbekistonning

kelajagi yo'q. Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga oid maxsus dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish zaruriyati etildi", – deb ta'kidlaganligini eslash joiz.[1]

Bugungi kunda eksport-import munosabatlarisiz mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish mumkin emas. Shu o'rinda, xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jaligining rivojlanish tarixiga e'tibor qaratmoq lozim. Har bir mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy salohiyati mavjud bo'lib, u takrorlanmasdir.

O'zbekiston amalga oshirayotgan tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakli xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdir. Shunga ko'ra, davlat valyuta kredit munosabatlarini, ya'ni, chet el sarmoyalarini xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlariga jalb qilish, xo'jalik korxonalarini birgalikda qurish va savdo-sotiq ishlarini amalga oshirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalarning nazariy va amaliy masalalariga doir qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu o'rinda Boguslavskiy M.M., Vitver I.A., Volf M.B., Maksakovskiy V.P., Abdusalomov M.A., Nuriddinov E.N., Rasulov A.A., Qayumov A.A. va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlari alohida e'tiborga loyiq ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Eksport-import munosabatlarini rivojlantirishda umumiy nazariyalar, kontsepsiyalar yoki modellarga tayaniladi. Mamlakatlar salohiyatining xilma-xilligi ya'ni, takrorlanmasligini e'tiborga olganda, ularning resurslar bilan ta'minlanganligi yoki tabiiy va iqtisodiy geografik o'rni, shu xilma-xillikni vujudga keltiradi.

O'zbekiston tabiiy resurslar bilan etarli darajada ta'minlangan, ammo uning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga bir muncha ta'sir ko'rsatuvchi omil ham mavjud bo'lib, u mamlakatning iqtisodiy geografik o'rni bilan bog'liqdir. Jumladan, respublikaning materik ichkarisida joylashganligi, dengiz transportining mavjud emasligi va boshqa geografik jihatlarini ta'kidlab o'tish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni tashqi iqtisodiy aloqalarning yuqorida bayon etilgan geografik xususiyatlariga e'tibor qaratilganligi

tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy ahamiyatini asoslaydi hamda uning dolzarbligini belgilaydi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining xalqaro munosabatlar tizimidagi ahvolini tahlil qilish:

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari: Ular quyidagicha belgilandi:

- Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining xalqaro munosabatlar tizimidagi ahvolini o'rganish;

- Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining xalqaro munosabatlar tizimidagi ahvolini tahlil qilish orqali baholash;

- Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining xalqaro munosabatlar tizimidagi ahvolini tahlil qilish orqali Qoraqolpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati iqtisodiy aloqalarning rivojiga ta'sirini bashorat qilish va boshqalar.

Malakaviy bitiruv ishining ob'ekti: Xitoy va O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarining Xorazm viloyati iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri.

Malakaviy bitiruv ishining kirish, II bob, 5 bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

I BOB. XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARNING GEOGRAFIK JIHATLARI.

1.1. Iqtisodiy integratsiyaning asosiy shakllari.

Iqtisodiy integratsiya jarayoni 50 va 60 yillarda yuqori sur'atlar bilan rivojlandi. Iqtisodiy integratsiya iqtisodiy sohada davlatlar o'rtasidagi farqni, tafovutni yo'qotishga qaratilgan jarayondir. Xorijiy hamkorlarni kamsitish, diskriminatsiya qilish davlatlarning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etadi. Integratsiya esa bunday kamsitishga yo'l qo'ymaydi va davlatlar iqtisodiyotini rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Yevropa hamjamiyati (YeH), Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (EFTA – European Free Trade Assotiation), Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi (AQSH, Kanada va Meksika o'rtasida savdo shartnomasi), Lotin Amerika integratsiya assotsiatsiyasi kabilar iqtisodiy integratsiyaga yorqin misol bo'la oladi. Bu assotsiatsiyalarga e'tibor beradigan bo'lsak, birinchi o'rinda geografik yaqinlik inobatga olinganligini ko'rishimiz mumkin. Davlatlarning integratsiyalashuv jarayoniga qiziqishining ortishi va qo'shilish sabablari quyidagilardan iborat:

- qo'shni davlatlar uchun mahsulotlar oqimi bosib o'tadigan masofaning kichikligi;
- taqsimot kanallari tashkil etishning engilligi va iste'molchilar ta'aminig bir xil bo'lish ehtimolining yuqoriligi;
- qo'shni davlatlar tarixi va qiziqishlarining umumiyligi.

Iqtisodiy integratsiyaning to'rtta asosiy formasi mavjud.

Erkin savdo hududi. Erkin savdo hududi a'zolari o'rtasida barcha boj to'lovlari bekor qilinadi, biroq bu hududga a'zo bo'lmagan davlatlar o'rtasida esa bu imtiyozlar saqlanmaydi. Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi, Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi va Lotin Amerika integratsiya assotsiatsiyasi erkin savdo hududiga misol bo'la oladi.

Bojxona ittifoqida barcha ichki tarif yagona tashqi tarif bilan almashtiriladi. YeHni tashkil etishda bojxona ittifoqi birinchi bosqich vazifasini o'tagan. Lotin Amerikasini yetakchi uch integratsion guruhari - And guruhi (Andean group),

Markaziy Amerika umumiy bozori (Central American Common Market) va Karib bo'g'ozi davlatlarining hamjamiyati va bozori (Caribbean Community and Common Market) bojxona ittifoqiga misol bo'ladi.

Umumiy bozor. Umumiy bozorda bojxona ittifoqining shartlariga ishlab chiqarish omillarining erkin harakati qo'shiladi, xususan mehnat va kapital erkin harakat qilishi mumkin. Umumiy bozor shartlarini faqat YeH qanoatlantiradi.

To'liq iqtisodiy integratsiya. To'liq iqtisodiy integratsiya bosqichida pul kredit, iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, soliqqa tortish va sotsial siyosatlar unifikatsionlanadi. Bu etap ma'lum darajada siyosiy integratsiyani nazarda tutadi. Yevropa parlamentini tasis etilishi Yevropani siyosiy jihatdan birlashish yo'lidagi birinchi qadami bo'lgan. Bundan tashqari Yevropa markaziy bankini tashkil etilishi pul-kredit va volyuta munosabatlarining shakllanishiga ko'mak berdi.

Iqtisodiy integratsiyaning ta'sirini dinamikada va statikada ko'rish mumkin. Iqtisodiy integratsiyani statikada ta'siri, resurslarni samaradorligi kam bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan, samaradorligi va iste'molchilarni mahsulotga bo'lgan talabi juda yuqori bo'lgan ishlab chiqaruvchilar tomoniga harakat qilishida namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida to'siqlarni kamayishi natijasida savdoni bir davlatdan ikkinchisiga harakat qilish, hamda iste'molchilar yangi mahsulotni olish imkoniyati tug'iladi. Ichki bozorda himoyalangan kompaniya to'siqlar olib tashlangandan keyin haqiqiy qiyinchiliklarga duch keladi, chunki endilikda o'z ishini samarali bajaruvchi ishlab chiqaruvchilar bilan raqobatlashishga to'g'ri keladi. Savdo to'siqlarini olib tashlash natijasida talab avtomatik ravishda ortadi. Chunki resurslar samaradorligi yuqoriroq bo'lgan ishlab chiqaruvchilar tomoniga qarab harakat qiladi. Natijada ayrim firmalar uchun ishlab chiqarish suratini oshirish imkoniyatlari bozor hajmining kattaligidan kelib chiqadi va bu ustunliklarini amalga oshiradilar. Bu esa savdoni rivojlantirishga va bozorni kengaytirishdan qo'shimcha manfaatdorlik olishga undaydi. Iqtisodiy integratsiyani dinamik ta'siri bozorni o'sishi bilan ishlab chiqarish hajmini ko'payishi natijasida firmalar tejamkorlikga erishishida namoyon bo'ladi.

Bozor hajmining dinamik o'zgarishi natijasida mahsulotlarni pastroq narxda ishlab chiqarish mumkin bo'ladi. Bozor dinamikasini muhim xulosasi bu raqobat kurashining mustahkam bo'lishi natijasida ishlab chiqarish samaradorligini o'sishidir. Ko'pgina yevropa firmalari qo'yilish (qo'shilish) hisobiga katta hajmga ega bo'lib, natijada zabardast bozorlarda muvoffaqiyatli raqobatlasha olganlar.

1.2. Hududlar kesimida iqtisodiy integratsiya va iqtisodiy hamkorlik.

Yevropa hamjamiyati.

Iqtisodiy integratsiya G'arbiy Yevropada to'liq rivojlandi. Ob'ektiv iqtisodiy jarayonlar bilan bir qatorda G'arbiy Yevropa integratsiyasi V. Gyugo, I. Kant kabi Yevropa siyosiy, jamoat arboblari va faylasuflari tomonidan olga surilgan yagona Yevropa g'oyasi bilan xam sug'orilgan. Yevropa ittifoqi (YeI) tashkil topishi va rivojlanishining yangi tarixi 1951 yildan boshlandi. Shu yilning aprelida 6 davlat - Frantsiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Luksemburg a'zo bulib kirgan. Evropa kumir va pulat birlashmasi (EKPB) xaqidagi bitim imzolandi. Bu G'arbiy Yevropa integratsiyasining o'ziga xos kirish qismi edi. Uning hosil bo'lishi va rivojlanishining real boshlanish vaqti yuqoridagi davlatlarda 1957 yildan Yevropa Iqtisodiy Xamjamiyati (EIJ) va atom energiyasi buyicha Yevropa Xamjamiyati (Yevroatom) xaqidagi bitimlar imzolangan. Xamjamiyat tarkibiga rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar kirdi. Bu esa, keyingi 15 yil mobaynida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atida bo'lishini ko'p jixatdan ta'minladi. G'arbiy Yevropa integratsiyasining rivojlanishi 50-yillar oxiridan xozirgi vaqtgacha notekis va qarama-qarshiliklar bilan kechdi. Shu bilan birga Yevropa Iqtisodiy Xamjamiyati tashkil qilishda uning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar, uning butun faoliyati davomida yetarli darajada to'liq va muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

G'arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishini ramziy ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich (50-yillar oxiri - 70-yillar o'rtalari) Xamjamiyat xayotida "oltin asr" xisoblanadi. Unda bojxona ittifoqi muddatdan oldin tuzildi, yagona agrar bozori nisbatan muvaffakiyatli yaratildi, YEIHga uchta yangi davlat: Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya kirdi. YEIH yoki uni ko'pincha aytganlaridek,

“Umumiy bozor”ni tashkil qilishning aniq, maqsadlari quyidagilar: □ - qatnashuvchi davlatlar oʻrtasida savdoda asta-sekin barcha cheklanishlarni olib tashlash; □ - uchinchi davlatlar bilan savdoda umumiy boy tariflarini oʻrnatish; □ - ishchi kuchi, kapital, xizmatlarning erkin xarakatiga toʻsiqlarni olib tashlash; □ - transport va qishloq, xoʻjaligi sohasida umumiy siyosat ishlab chiqish va amalga oshirish; □ - valyuta ittifoqi tuzish; □ - soliq, tizimini unifikatsiya qilish; □ - qonunchilikni yaqinlashtirish; □ - iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish. □ Bularni amalga oshirish maqsadida boshqaruv strukturasi majmui - YEIH Vazirlar Kengashi, Yevropa Hamjamiyatlar komissiyasi, Yevropa kengashi, Yevropa Sudi, Yevropa parlamenti tashkil qilindi. □ Oʻzining birinchi vazifasi qilib YEIH, aʼzo davlatlar tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchining umumiy bozorini tashkil qilish vazifasini qoʻydi. Buning uchun bojxona ittifoqi tuzildi. Aynan bojxona ittifoqi YEIH, asosida yotadi. Bojxona ittifoqi doirasida: □ - qatnashchi davlatlar oʻzaro savdosida savdo toʻsiqlari yoʻqotildi; □ - uchinchi davlatlarga nisbatan yagona bojxona tarifi oʻrnatildi; □ - kapital, kreditlar, pul koʻchirmalarining erkin harakatiga erishildi; □ - ishchi kuchi migratsiyasi erkinligi va turar joy tanlash erkinligi taʼminlandi.

Bu choralar sanoat integratsiyasining tezlashishiga imkon berdi. Bir vaqtda kompensatsion yigʻimlar va qishloq xoʻjaligi fondi orqali moliyalashtirish yordamida jamoa proteksionizmini oʻrnatish shakli orqali agrar integratsiyani amalga oshirishga harakat qilindi. YEI agrar siyosati YEIga aʼzo davlatlarining koʻpgina qishloq, xoʻjalik mahsulotlari uchun umumiy minimal narx oʻrnatishni kafolatlaydigan yagona narxlar tizimiga asoslanadi. Umumiy bozorning shakllanishi YEIX, davlatlari milliy monopoliyalarining transmilliyga aylanish jarayonini tezlashtirdi, sherik davlatlar iqtisodiyotiga kirishga imkon yaratdi. YEIX rivojlanishi Hamjamiyat aʼzo-davlatlarining yopiq, milliy xoʻjalikdan tashqi bozorga yuzlangan ochiq tipdagi iqtisodiyotiga intensiv oʻtishini bildiradi. □ Ikkinchi bosqich (70-yillar oʻrtalari - 80-yillar oʻrtalari) YEI tarixiga asosan turgʻunlik davri sifatda kirdi. Bu davrda YEIga aʼzo-davlatlar Yevropa valyuta hamkorligi dasturi, tashqi siyosiy

konsultatsiyalar mexanizmini qabul qilishga muvoffaq bo'lsalarda, namoyon bo'lgan negativ an'analar Garbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining jiddiy inqiroziga olib keldi. Bu inqiroz yevroskleroz nomini oldi. 70-80- yillarning boshida YEI davlatlari o'rtasidagi rivojlanish farqi o'sdi. 1981 yilga YEIga Gretsiyaning kirishi bilan bu an'ana yanada yorqinroq buldi, chunki bu davlat iqtisodiyoti hamjamiyatning boshqa qatnashchilarinikiga nisbatan juda past darajada edi. □ Uchinchi bosqich (80-yillarni 2-chi yarmi 90-yillarning boshi) - hamjamiyat tarkibining yanada kengayish bosqichi. 1986 yilda Ispaniya va Portugaliyaning qo'shilishi davlatlar o'rtasidagi disproportsiyaning kuchayishiga olib keldi. YEIHga a'zo bo'lgan vaqtda Portugaliyada kishi boshiga tug'ri keladigan daromad YEIH dagi o'rtacha daromadning taxminan yarmiga, Ispaniyada esa 3/4 qismiga tug'ri kelardi. Yangi qatnashchi davlatlarda taxminan beshdan bir kishi qishloq xo'jaligida ishlardi, YEIH da esa o'n uchdan bir kishi. Shu bilan birga, aynan shu davr G'arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishidagi avvalam bor yagona Yevropa akti (YAEA)ning qabul qilinishi bilan bog'liq bo'lgan yangi turtki bilan xarakterlanadi. YAEAda Hamjamiyat qatnashchi davlatlarining umumiy maqsadi - Yevropa Ittifoqi Hamjamiyat qatnashchilarining siyosiy alyansini namoyon qiluvchi va nafaqat ularning yuqori darajadagi iqtisodiy, valyuta-moliya, gumanitar hamkorligini balki tashqi siyosatini, shu jumladan, xavfsizlikni ta'minlashni ko'zda tutuvchi birlashma tuzishni tasdiqladi. YAEAning Markaziy holati shundaki, unda YEIH, a'zolari yagona xo'jalik organizmini tashkil qiladigan yagona iqtisodiy hududni qayd qilindi. YAEAning qabul qilinishi bilan hamjamiyat a'zoq davlatlarining mikro va makroiqtisodiyot, siyosat va huquq, fan va ekologiya, mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar sohasidagi integratsion jarayonlar kuchaydi. 90-yillar boshida YEI a'zo davlatlari yagona bozor asoslarini yaratishni amalda tugatdilar va valyuta-iqtisodiy va siyosiy ittifoqlarni shakllantirishga bevosita yaqinlashdilar. □ To'rtinchi bosqich (90-yillarning o'rtalari - XXI asr boshi). Yagona Yevropa aktiga muvofiq, 1993 yil 1 yanvardan boshlab hamjamiyat chegaralari ichida ishlab chiqarish vositalarining erkin harakati kiritildi. Amalda

hamjamiyat doirasida yagona iqtisodiy hudud vujudga keldi. Bu YEI ning iqtisodiy integratsiyasining sifat jihatdan yangi bosqichga kirganini anglatadi. □ Maastricht bitimiga (1992 yil fevral) muvofiq, 1994 yil 1 yanvardan YEIH Yevropa Ittifoqiga aylandi va uning a'zolari 15 taga yetdi. YEI doirasida to'liq yagona ichki bozorning tuzilishi amalga oshirilmoqda. Keyingi integratsion hamkorlikning maqsadlari e'lon qilingan. Ular o'z ichiga yagona valyuta yevroni emissiya qilish huquqiga ega yagona Yevropa bankini tuzish, ichki chegaralarsiz yagona G'arbiy Yevropa hududini tashkil qilishni oladi. □ YEI hujumkor rivojlanishi bu jarayonda qarama-qarshiliklar va qiyinchiliklar mavjud emasligini bildirmaydi. Yuqorida YEI ga yangi a'zolar kirishi munosabati bilan yuzaga kelgan davlatlararo va davlat ichidagi disproportsiyalar qayd qilingan edi. YEI ning mumkin bo'lgan yangi kengayishi bilan ham sezilarli muammolar paydo bo'ladi: YEIga kirishni Turkiya, Malta va Kipr kutmoqda. 1996 yil yanvardan Turkiyaning YEI bilan bojxona ittifoqi haqidagi kelishuvi kuchga kirdi. YEI ichida ham hammasi "bir tekisda" emas. Eng katta qiyinchiliklar Yevropa valyuta tizimini shakllantirish davomida namoyon bo'lmoqda. 1992 yildagi 7 %ga Britaniya funt sterlingi va Italiya lirasi devalvatsiyasi oqibatida ro'y bergan YEVT inqirozi Buyuk Britaniya va Italiyani avtomatik tarzda YEVTdan chiqarib tashladi. Valyuta ittifoqini shakllantirish unga kirish mezonlariga erishish qiyinchiliklari bilan birga boradi. Talab qilinadigan almashuv kursi inflyatsiyasining darajasi, foiz stavkalari darajasi, byudjet defitsiti va davlat qarziga faqat Luksemburg javob beradi. YEI a'zolari orasida Ittifoqni kengaytirish, integratsiyani chuqurlashtirish yo'li haqidagi qarama-qarshiliklar mavjud. □ G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi faqat YEI chegaralari bilan cheklanmaydi 60-yillar boshidan boshlab Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi mavjud (EESA). EESA EI dan farqli ravishda davlat usti funktsiyalariga va davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga ega emas. EESA a'zo-davlatlari (80-yillarda ular 7 ta edi). Bu davlatlar o'rtasidagi bojsiz savdo tovar chiqarilgan joyga qarab ishlab chiqilgan murakkab qoidalar tizimiga asoslanadi. Yagona bojxona ta'rifi yukligi sababli EESA ichida bojsiz savdo erkinligi faqat a'zo-davlatlarda

ishlab chiqarilgan tovarlar uchun mavjud. EESA ga kiruvchi davlatlarning va ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yukori darajada rivojlanganligiga qaramasdan, EESA to'laonli integratsion guruhga aylanmadi. Amalda u EIX/EI uchun "farmklub", ya'ni, yangi a'zolar yetkazib beruvchi bo'lib qoldi. Xozirgi vaqtda EESAning ko'pgina a'zolari uni Sharqiy va G'arbiy Yevropa o'rtasida istiqbolli erkin savdo zonasi sifatida qaramoqdalar. YEI iqtisodiy quvvati, uning kengayishi dinamikasi va aloxida G'arbiy Yevropa davlatlarining u bilan savdodan kuchli qaramligi bizda mashxur "Yevropada qanday qilib biznes qilish kerak" nomli kitob muallifi Volfgang Xayerning aytishicha, yaqin kelajakda qolgan Yevropa davlatlarini alternativ oldiga qo'yadi: yo YEIga kirish va qisman mustaqillikdan voz kechish, ammo shu bilan birga dunyoning eng yirik bozorlarining barcha imkoniyatlaridan foydalanish, yoki chetda qolgan holda o'z iqtisodiyoti uchun yomon oqibatlar bilan G'arbiy Yevropa birlashish jarayonini o'zi uchun yo'lni qirqib tashlash. Buni tushungan sobiq O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi (UIYOK) a'zo-davlatlari o'z yo'llari bilan borishga intilmoqdalar. 1990 yilda ular Vengriya, Polsha, Chexoslovakiya a'zo bo'lgan "Vishegrad uchligi" integratsion guruxini tashkil etdilar. Chexoslovakiya bo'linib ketgach, bu gurux "Vishegrad to'rtligi"ga aylandi. 1993 yil 1 martdan boshlab bu gurux doirasida asta-sekin o'zaro bojlarni kamaytirishni ko'zda tutuvchi Markaziy Yevropa erkin savdo xaqidagi kelishuvi kuchga kirdi. Bu qadamga shu sabab bo'ldiki, EI bilan "Vishegrad to'rtligi"ning xar bir a'zosi maxsus "Yevropa kelishuvlari" imzolanganligiga qaramasdan, ularning savdo-iqtisodiy munosabatlari umuman olganda qoniqarsiz rivojlanmoqda. Shuning uchun oxirgi o'n yilliklar mobaynida ishlab chikilgan Markaziy Evropa savdo iqtisodiy aloqalarini saqlab qolish va ko'paytirish uchun xam bu integratsion gurux tuzildi.

Lotin Amerikasida iqtisodiy xamkorlik. G'arbiy Evropa iqtisodiy integratsiyasi rivojlanishining muvaffakiyati jaxonning rivojlanayotgan mintakalarida e'tiborni jalb qiladi. Lotin Amerikasida, Afrikada va Osiyoda o'tgizdan ortiq erkin savdo zonalari, bojxona yoki iqtisodiy ittifoqlar yuzaga keldi.

Ammo eng sezilarli, rivojlanayotgan integratsion jarayon Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi - NAFTAni tashkil kilish va faoliyat kursatish jarayoni buldi. Mavjud bulgan AQSH bilan Kanada o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya va ularning G'arbiy Yevropadagi sheriklar bilan xamkorligi AQSHni qoniqtirmay qo'ydi. Natijada, Shimoliy Amerikadagi integratsion jarayonlar ikki davlat doirasidan chiqib ketdi, 1994 yil 1 yanvarda kuchga kirgan Shimoliy Amerika erkin savdo zonasi haqidagi shartnoma imzolandi. NAFTAga AQSH va Kanadadan tashqari Meksika ham qo'shildi. Blok hududi 370 mln. aholi va kuchli iqtisodiy salohiyatga ega hududni qamrab oladi. Bu davlatlar tomonidan ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlar 7 trln. doll.ni tashkil qiladi. Ular ulushiga jahon savdosi umumiy hajmining 20% iga yaqini to'g'ri keladi.

Shartnomaning asosiy holatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: □ - AQSH, Kanada va Meksika o'zaro savdo qiladigan tovarlarga nisbatan bojlarni bekor qilish; □ - Shimoliy Amerika bozorini o'z tovarlarini Meksika orqali AQSHga eksport qilish yo'li bilan Amerika bojlarini to'lamaslikka harakat qiluvchi Osiyo va Yevropa kompaniyalari ekspansiyasidan himoya qilish; □- Meksikada bank va sug'urta ishida Amerika va Kanada kompaniyalari kapital qo'yilmalari va raqobatlariga bo'lgan takiklarni olib tashlash; □- atrof-muhitni himoyalash bilan bog'lik muammolarni hal qilish uchun uch tomonlama guruhlar tashkil qilish. □ Besh yil mobaynida AQSH Meksikadan import qilinadigan mahsulotlar turining uchdan ikki qismi uchun import tariflarini bekor qiladi. Imzolangan kelishuvlardan eng ko'p foydani savdo bloki iste'molchilari oladi, chunki raqobatning kuchayishi va tariflarning pasaytirilishi natijasida keng tovarlar doirasiga narhlar pasayadi. Amerika sanoatchilari foyda olishadi, chunki arzon ishchi kuchi oqimi kuchayadi. Kafolatlangan daromadning o'sishi Amerika iqtisodiyotining, elektronika kompyuter ta'minoti, qurilish materiallari, avtomobil ehtiyot qismlarini ishlab chiqarish va boshqa sohalarida kutilmoqda. Ayni paytda, shakar, tsitrus mevalari, qishki sabzavotlar yetishtiruvchi Amerika fermerlari zarar ko'radilar. Meksikaga kelganda, u NAFTA yordamida o'z iqtisodiy o'sishi sur'atlarini oshirmoqchi -

taxminan YAIMning 1,6%-2,6% yillik o'sishi. Natijada, Meksika iqtisodiyotini islox qilish va sanoati rivojlangan davlatlar guruxiga qo'shilish muddatini yarim asrdan 10-15 yilga kiskartirishi mumkin.

NAFTAdan eng kam foydani oldiniga Kanada oladi. Uning iqtisodiyoti AQSHniki bilan chambarchas bog'lik, Meksikaniki bilan juda kam. Ammo, NAFTA rivojlanib borishi bilan Kanada integratsion jarayonga yanada ko'prok tortiladi va kengayayotgan bozordan dividendlar oladi. NAFTA faoliyatining birinchi ikki yilida eksport xajmining oshirish xisobiga kushimcha ish urinlari xosil bulishiga bulgan umid oqlanmadi. Bundan tashkari, AQSHning Meksika bilan savdodagi ijobiy saldosi yukolib, 1995 yilda defitsit paydo buldi. Umuman olganda, NAFTA tashkil qiluvchilarning rejasiga kura, to'laqonli Shimoliy Amerika bozori 2010 yilda tashkil qilinishi mumkin. Xozirdayok, Amerika iqtisodchilari Alyaskadan Olovli Yergacha cho'zilgan o'ziga panamerika savdo bloki tuzishni modellashtirmoqdalar. □

Integratsion jarayonlar Janubiy Amerikada xam faollashmokda. O'z davrida (60-yillar boshida) bu erda "erkin savdo zonasi"ni yaratish, sungra Markaziy Amerika umumiy bozori - MAUBni tashkil kilish rejalashtirilgan edi. Biroq, siyosiy va iqtisodiy inqiroz bu rejalarni amalga oshirishga imkon bermadi. 90-yillar o'rtalarida integratsion jarayonlar 1991 yilda Argentina, Braziliya, Urugvay va Paragvay (keyinroq qo'shilgan) o'rtasida tuzilgan va 1995 yil 1 yanvarda kuchga kirgan "MERKOSUR" savdo pakti tuzish orqali faollashdi. Bu pakt umumiy axolisi 200 mln. kishidan ko'p bo'lgan va umumiy YAIMsi 550 mlrd. doll. bo'lgan davlatlar birlashtiruvchi yangi yirik mintaqaviy savdo-iqtisodiy blok tuzilishiga olib kelishi kerak. MERKOSUR guruxi tuzilishi natijasida to'rt davlat o'zaro savdosining 90% xar bir tarifli to'siqlardan ozod qilinadi, uchinchi davlatlardan importga esa, umumiy ta'rif strukturasi va bojxona qoidalari kiritiladi.

Afrika va Osiyoda integratsion urinishlar.

O'z mintaqalarida integratsion jarayonlarni rivojlantirishga Afrika davlatlari xam intilmoqdalar. 1989 yilda, Afrika kit'asining shimoliy qismida Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokko va Tunis ishtirokida Arab Mag'ribi Ittifoqi tashkil qilingan.

Bu ittifok, xaqidagi shartnoma mintakaviy integratsiya darajasida keng miqyosda iqtisodiy xamkorlikni nazarda tutadi. Ammo, Shimoliy Afrika xududi beshta milliy chegaralardan yopik, bir-biridan ajralgan bozorlardan iborat. Boshqa Afrika davlatlarining iqtisodiy integratsiyaga intilishi rivojlangan, amalda bir-biri bilan iqtisodiy alokalari bulmagan davlatlarning Afrikaning ayrim submintakalarida ichki bozorning extiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan sanoatni rivojlantirish uchun sharoit yaratishga xarakatni anglatadi. Iqtisodiy va bojxona ittifoklarni tashkil etib Afrika davlatlari muvofiklashtirilgan siyosat asosida uzaro iqtisodiy alokalarni rivojlantirishni rejalashtirilgan edi. Natijada, aloxida mintakalarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash bazasi sifatida nisbatan katta sig'imli ichki bozorlar tashkil qilish mo'ljallangandi. Integratsiya rivojlanishining muqobil yo'li, ko'p xolda o'z kuchlari bilan rivojlanishga erishish yo'li sifatida qaralardi. "O'z kuchlari bilan" kontsentsiyasi iqtisodiyot strukturasini qayta qurish avvalo maxalliy resurslar, ichki rivojlanish omillarini safarbar qilish xisobiga erishish mumkinligini ko'zda tutadi. Bu g'oya Afrika birligi tashkilotining 2025 yilga kelib Afrika iqtisodiy xamjamiyatini tuzish rejasida xam bor. Afrika integratsion jarayonlarining amaliyoti, Afrika davlatlari raxbarlari tomonidan e'lon kilingan chukurlashgan xamkorlik maksadlarining amalga oshirish imkoniyatlari asosan bu maksad va vazifalar fakat yaxshi niyat bulib kolayotganligini kursatadi. Kambag'al va rivojlanmagan davlatlarning an'anaviy shakldagi iqtisodiy xamkorligi "kambag'allik doirasidan" chiqishga olib kelmaydi, sezilarli bir rivojlanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, Afrika umumiy bozori goyasi, uni tashkil kilishdagi muvaffakiyatsizliklarga karamasdan xamon kit'ada mashxurdir.

XX asr oxirida Sharqiy Osiyoda integratsiyon jarayonlar kuchaymokda. Turt Osiyo "ajdarxolari" dan biri - Singapur, shuningdek yangi oqim YAID (yangi industrial davlatlar) - Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney va Filippin kirgan Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) kariyb 30 yil mobaynida eng muvaffakiyatli faoliyat kursatmokda. Bu gurux doirasida o'zaro xamkorlikning muvaffakiyatli ASEAN katnashchi-davlatlari kuchliligining iqtisodiyoti gurkirab

o'sishi, ular rivojlanishining bir-biriga mosligi, yaxshi yo'lga kuyilgan va uzoq, tarix an'analariga ega bo'lgan o'zaro savdo aloqalari, shuningdek tartibga solib bo'lingan xamkorlik shakli bilan chambarchas bog'lik.

ASEAN rejalarida 2000-yilgacha qatnashuvchi davlatlar bojlarini 38 ming turdagi tovarlar buyicha urtacha 5% gacha kiskartirilgan. 1995 yil oxirida 2003-yilda tulakonli erkin savdo zonasi tashkil kilish xakida karor kabul kilingan. SHarkiy Osiyoda iktisodiy integratsiya rivojlanishi istikbollarini kup jixatdan Osiyo-Tinch okeani iktisodiy xamkorlik tashkilotining (OTIX) tuzilishi bilan boglashadi. Unga Osiyo, shuningdek SHimoliy va Janubiy Amerikaning 18 davlati a'zo. Xalqaro ekspertlar bashoratiga ko'ra, Sharqiy Osiyo YAMM xajmi bo'yicha 2005 yilgacha kelib G'arbiy Yevropani, 2008 yilga kelib esa, Shimoliy Amerikani ortda qoldirishi mumkin. OTIX, rejalariga muvofiq, 2020 yilga kelib, jaxonda eng yirik bojxona va ichki tusiklarsiz erkin savdo zonasini tashkil kilish nazarda tutilgan. Osiyo-Tinch okeani mintakasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini baxolagan ko'plab mutaxassislar uning rivojlanishi stixiyali va o'ziga xosligini ta'kidlaydilar. Buning ustiga integratsion munosabatlar etuklik darajasi xozircha unchalik yukori emas. Masalan, ASEAN tuzimidagi savdo zonasini iktisodiy integratsiyaning birinchi boskichi, ya'ni, tarif va tarifli tusiklarsiz erkin savdo zonalariga kiritish mumkin. OTIXga nisbatan esa xozircha erkin savdo zonasi deb emas, "erkin iktisodiy asotsiatsiya" deb aytish mumkin. Ayni paytda, iktisodiy siyosatni o'zaro muvofiklashtirish natijasida mintakaning ichki savdosi va kapital bozorlarining tez rivojlanishi butun Osiyo-Tinch okeani mintakasining integratsiyaning birinchi bosqichi, ya'ni, erkin savdo zonasiga o'tishiga imkon beradi. Buning ustiga Osiyo-Tinch okeani mintakasidagi submintaka va guruxlardagi ayrim davlatlar integratsiyalashuv darajasi etarli darajada yukori va ular butun mintakada integratsion jarayonlar tezlashtirilgan rivojlanishining uziga xos polyusi, yacheykasi bo'lishlari mumkin. Masalan, "O'sish uchligi"- Janubiy Xitoy iqtisodiy zonasi (XXR, Gonkong, Tayvan). O'sishning "oltin uchligi" (Indoneziya, Mallaziya, Singapur), Yapon dengizi xavzasi davlatlari iktisodiy

zonasi, Xindikush iqtisodiy zonasi mavjud. Integratsiyaga, ya'ni, uzaro xamkorlikka intilish Fors kurfazi arab davlatlari orasida xam kuzatilmokda. 1981 yildan Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Katar, Baxrayn, Birlashgan Arab Amirliklari va Ummonni ("neft oltiligi") o'z ichiga olgan Xamkorlik Kengashi faoliyat kursatmokda. 1992 yilda Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy xamkorlik tashkiloti (IXT-EKYU) tashkil qilinishi haqida e'lon kilindi. Uni tashkil qilish taklifini Eron, Pokiston va Turkiya kiritdi. Ta'sischilar fikricha, IXT-EKYU uzida MDX musulmon respublikalari – O'rta Osiyo, Qozog'iston, Ozorbayjonni xam birlashtiriladigan bulajak Markaziy Osiyo umumiy bozorining timsoli bulmogi lozim.

Rivojlanayotgan davlatlar xamkorligi, ularning integratsiyaga bulgan intilishlari xaqida gapirganda shuni nazarda tutish kerakki, real integratsion jarayonlar xali juda kuchsiz va bir-biridan xarakteri, xarakatlantiruvchi omili, rivojlanish sur'atlari bilan farq, kiladi. Rivojlanayotgan davlatlarda amalda integratsiya xaqiqiy, rivojlangan ko'rinishda, ya'ni, doimo rivojlanayotgan va chuqurlashayotgan xam aloxida firma va korxonalar darajasida, xam umuman milliy xujaliklar darajasidagi bevosita davlatlararo alokalar shakllanish jarayoni mavjud emas. Rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy xamkorligi, ular e'lon qilgan integratsion maksadlar integratsion jarayonning tayyorgarlik boskichi, xolos. E'lon kilingan integratsion guruxlarning ko'pchiligi ijtimoiy-iktisodiy munosabatlarning yetuk emasligi, milliy xo'jaliklarning oddiy va strukturaviy differentsiyasizligini, bozor va moliya infrastrukturalarining rivojlanmaganligi bu tuzilmalarni yoki harakatsiz qoldirdi yoki butunlay muvaffaqiyatsizlikka uchratdi. □

Markaziy Osiyo mamlakatlarining xamkorligida Shanxay xamkorlik tashkilotining roli.

Xalqaro tashkilotlarning nufuzi va ahamiyati ularga dunyoda berilayotgan e'tibor va faoliyatining samaradorligi bilan belgilanadi. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) tashkilot sifatida shakllanish va boshlangich tadrijiy rivojlanish jarayonini qisqa fursatda bosib o'tdi. 2001yil 15 iyun kuni Xitoyning Shanxay shahrida olti mamlakat rahbari SHHTni tuzish to'g'risidagi deklaratsiyaga imzo chekdi. Uning doimiy ishlovchi ikki organi – Kotibiyat va Mintaqaviy aksilterror

tuzilmasini tashkil etishga kelishib oldi. Ta'sis hujjati – Xartiya (nizom) 2002 yil 7 iyun kuni Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida kabul kilindi. Shu tariqa tashkilot xalqaro yuridik makomga ega bo'ldi.

2003 yil 29 may kuni bulgan Moskva sammitida 2004 yil yanvaridan Pekinda Kotibiyatni, Toshkentda Mintakaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasini ishga tushirishga qaror kilindi.

Bulardan tashkari, 2003 yil sentabrda Xukumat raxbarlari kengashi karori bilan savdo-iktisodiy soxada kup tomonlama xamkorlikning uzoq muddatli dasturi ishlab chikildi va tasdiklandi.

SHHT doirasida a'zo mamlakatlarning tashki siyosat maxkamalari, iktisodiyot va savdo vazirliklari, xavfsizlik kengashlari urtasida muntazam mulokotlar o'tkazilmoqda. Toshkent sammiti arafasida ham bu idoralar rahbarlarining uchrashuvlari tashkil etildi. Bu tashkilotni rivojlantirishga, uning idorasidagi hamkorlikka muhim ahamiyat berilayotganidan yana bir dalolatidir. 2004 yil 17 iyun Toshkent shahrida SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining majlisi Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va O'zbekiston Prezidentlarining tor doiradagi uchrashuvi bilan boshlandi. Nursulton Nazarboev, Xu Tszintao, Askar Askaev, Vladimir Putin, Imomali Raxmonov va Islom Karimov SHHTni rivojlantirish va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish masalalari, qator xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan fikr almashdilar.

Toshkent uchrashuvida ko'rilgan masalalar orasida SHHT faoliyatining ikki asosiy yo'nalishi – xavfsizlik va savdo-iqtisodiy xamkorlik muammolari muzokaralari bosh mavzusi bo'ldi.

Qatnashchilar Mug'uliston Prezidenti Natsagiyn Bagabandining murojaaaatini ko'rib chiqib, ushbu mamlaakatni tashkilotga kuzatuvchi maqomida qabul qilishga qaror qildilar.

Nafaqat SHHT mintakasi, balki butun dunyodagi vaziyatga ta'sir ko'rsatib turgan Afg'onistondagi vaziyat xam anjuman kun tartibidan o'rin oldi. Ta'kidlamok jioizki, Afg'oniston muammolarini xal kilishga bagishlangan anjuman vaa

yigilishlar kupincha bu daavlatning ishtirokisiz utib kelardi. Aniqrog'i, Afg'oniston muammolarini echishda Afg'onistonning o'zi qatnashmas va bunga muhim ahamiyat berilmasdi. Buning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor. Afg'onistonda markaziy xokimiyat yuk edi, mamlakatni bulib olib, uziga tegishli xududlarni nazorat kiluvchi guruxlar esa bir-birini tan olmas, bir davrada uchrashishni istamasdi. Endi vaziyat uzgardi. Shu bois O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan SHHTning Toshkent sammitiga Afg'oniston muvakkat ma'muriyati raxbari Xamid Karzay mexmon sifatida taklif kilindi. Mantikan olganda, uning bevosita muxokama jarayonida ishtirok etishi vaziyatni tugri baxolash va xar tomonlama makbul karorlar kabul kilishda muxim ahamiyat kasb etishi shubxasizdir.

Shu tarika tashkilot tarixida ilk bor SHHT Davlat raxbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibidagi uchrashuvida Afg'oniston raxbari Xamid Karzay va Mug'uliston prezidenti vakili, mamlakat tashki ishlar vaziri Lu San Giyn Erdenechuluun qatnashdi.

SHHT savmiti kun tartibida xavfsizlik masalasiga keng urin berilgani bejiz emas. Yakinda O'zbekistonda sodir etilgan terrorchilik xarakatlari xavfsizlikga taxdid xamon saklanib kolayotganini kursatdi. Bu voqealar nafakat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintakasida vaziyatni ishdan chiqarishga qaratilgan harakat sifatida qabul qilinishi lozim.

Ma'lumki, butun dunyoda terrorchilik kuchaymoqda. Yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo buldi. Shularni hisobga olgan xolda, SHHT egallagn mintakada taxdidlarni oldini olish uchun yaxlit bir tizim, umumiy mexanizm ishlab chikish maksadga muvofikdir. Tashkilot xavfsizlikni mustaxkamlash borasida amaliy hamkorlikni rivojlantirayotganini ta'kidlash joiz, Toshkentda rasman ochilgan Mintakaviy aksilterror tuzilmasi zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona kumitalarining, maxsus xizmatlarning xamkorligini muvofiklashtirish, shu orqali terrorchilikning oldini olish vazifasi yuklangan.

Prezident Islom Karimov ko'p bor ta'kidlaganidek, terrorchilikga qarshi kurashda ko'poruvchilarni, ularning bazalarini yukotish bilan cheklanib, tahdidlarga faqat kuch bilan javob berish bilan kifoyalanib bo'lmaydi. Odamlarning ongini zaharlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurashish kerak. Bu kurash siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy mezonlarni ham qamrashi darkor.

Sammitda O'zbekiston raxbari ana shu zaruratni ta'kidlar ekan, terror va narkobiznes uchun «tranzit davlat» tushunchasining uzi yukligi kayd etdi. Ya'ni, taxdid muayyan bir mamlakatga karshi karatilmagan bulsa, unga nisbatan bu farq bulish notug'ri. Yer yuzida terrorchilar o'zini xotirjam seza'digan joy qolmagandagina terrorchilikga karshi xalqaro kurash kutilgan samarani berish mumkin.

SHHT sammitida kurilgan ikkinchi asisiy masala savdo-iktisodiy xamkorlikni rivojlantirish bilan bog'lik. Zero, ishtirokchilar ta'kidlaganidek, SHHT a'zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir. Iqtisodiy hamkorlikda transport infratuzilmasini rivojlantirish, tabiiy, mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish, suv-energetika zahiralaridan unumli foydalanish, ekologiyaga oid masalar, xususan, ichimlik suvi muammolarni hal qilish kabi dolzarb muammolar bor.

Islom Karimov Markaziy Osiyoda umumiy bozor yaratish to'grisi'dagi taklifini SHHT sammitida yana bir bor e'lon kildi. Zero, «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotini tuzgan mintakamiz mamlakatlarining bu maqsadga erishishida Rossiya va Xitoydek qudratli davlatlar bilan SHHT doirasida hamkorlikni chukurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, SHHT mamlakatlari qit'alararo transport yo'laklarining muhim bo'ginidir. Shuni inobatga olsak, yangi transtport tarmoqlarini barpo etish orqali SHHT mamlakatlari dunyoning boshqa davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda qo'shimcha imkoniyatga ega bo'ladi. ma'lumotlarga qaraganda,

hozir Xitoy yo'nalishi, Afg'oniston orqali Fors ko'rfazi bandargohlariga chiqadigan yo'nalishlari bo'yicha loyihalar o'rganilmoqda.

Fan-texnika va yuqori texnologiya, energetika sohalarida ham integratsiya jarayonlarini kuchaytirish orqali, mintakaviy hamkorlikni keng ko'lamli xalqaro hamkorlik darajasiga ko'tarish mumkin.

Samarali hamkorlikni rivojlantirish uchun o'zaro ishonchni mustaxkamlash, buning uchun esa mulokotlarni faollashtirish, SHHTning bir mamlatidan ikkinchisiga boradigan sarmoyaning xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy poydevorni yaratishdir. Bu yulda uchragan to'siq va muammolarni bartaraf etish zarur. Shunda hamkorlikdagi iqtisodiy dastur loyihalarning ko'lami yanada kengayadi. Sammit katnashchilari savdo iqtisodiy alokalarni ragbatlantirishga kelishib oldilar. Yigilishda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin SHHTning Afg'oniston bo'yicha muloqot guruhini tuzish taklifini ilgari surdi. XXR raisi Xu Tszintao Xitoy hukumati SHHT doirasidagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga 900 mln AQSH dollari miqdorida kredit ajratishini ma'lum qildi.

Uchrashuvning yakuniy xulosasi shundan iboratki, a'zo mamlakatlarning iqtisodiyotni yuksaltirish, xalqlar farovonligini oshirish, xavfsizlikni mustahkamlash yulidagi hamkorligi SHHTning, shubhasiz, xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallash imkoniyati mavjudligini ko'rsatmoqda. Tashkilot tula shakllanib buldi, endi amaliy ishlar davri boshlandi.

Sammit katnashchilari SHHT Davlar raxbarlari kengashi majlisi yakunlari buyicha Toshkent deklaratsiyasi, SHHTning vakolatlari va immunitetlari to'grisidagi konventsiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning nokonuniy aylanishigaa karshi kurashda xamkorlik tugrisidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir qator hujjatlarni imzoladilar. .



•rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bilan amalga oshirilgan eksport va import munosabatlarida “monitoring” tizimini shakllantirish;

- eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirishda mamlakat resurs salohiyatiga tayanish;

- tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda mamlakatning iqtisodiy geografik o'rni va tashqi iqtisodiy faoliyat geografiyasiga ahamiyat berish.

Huquqiy demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyoti mamlakat iqtisodiyoti, undagi soha va tarmoqlarda biri-birini to'ldiruvchi hamjihatlikni, o'z budjetini mablag'lar bilan moliyalash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tamoyiliga amal qilish, yangi avlod kelajagi uchun mayda elementlarga qadar echimini topishi lozim bo'lgan muammolarni hal etish imkonini bermiqdaki, bu hol yangi islohotlar davrining boshlanishi uchun keng yo'l ochmoqda.

Iqtisodiyotda halqaro teng manfaatli hamkorlikni o'rnatishga intilish orqali O'zbekiston yangi ishlab chiqarish munosabatlarida, iqtisodiy barqarorlik va tovar ayirboshlashda xalqaro tamoyillarga rioya etmoqda. Sanoat ishlab chiqarishida yangi turdagi mahsulotlarning paydo bo'lishi mahalliy aholining hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantirish bilan birga, qo'shni davlatlar ichki bozorlariga raqobatbardosh, iste'mol talablarini qondiradigan mahsulotlar chiqarish imkonini berdi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi yuqoriligi jihatidan jahonda o'ziga xos nufuzga ega davlatlar bilan hamkorlik mamlakatimiz qishloq aholisining ish bilan bandligi darajasi va eksport salohiyati ortishi uchun xizmat qilmoqda.

Prezident I.Karimov "...eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozoriga kirib borish uchun avvalo, qimmatbaho xom ashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarni rivojlantirish zarur. Xorijiy sheriklar bilan birgalikda zamonaviy ixcham korxonalar barpo etib, ularni mehnat resurslarining manbalari bo'lmish qishloqqa yaqinlashtirish lozim" - deb ta'kidlagani bu boradagi muhim taklif hisoblanadi.

Ilgari O'zbekiston tashqi savdo aloqalarining eng muhim yo'nalishi - eksportning 83 foizdan ziyodroq qismi sobiq Ittifoq respublikalari bilan amalga oshirilgan bo'lsa, 2003 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, ushbu ko'rsatkichning 74 foizga teng qismi uzoq xorij bilan va faqat 26 foizga teng qismi yaqin xorij bilan amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, tashqi aloqalarni kengaytirish, mamlakatimiz eksport imkoniyatlarini rag'batlantirish maqsadida, muhim me'yoriy hujjatlar qabul qilinganligi tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish yo'lida qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

Bu sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo faoliyatini rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va himoya qilish to'g'risida", "Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligini tashkil etish to'g'risida", "Davlat soliq va bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida", "Eksport-import operatsiyalar ustidan valuta nazoratini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari va boshqalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2000 yil 26 mayda "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida Oliy Majlisning 77-11-sonli qarori qabul qilinishi shular jumlasidandir. Shunga ko'ra, tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlar yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining tengligi;
- savdo iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda o'zaro manfaatdorlik;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni huquqiy tartibga solishda maxsus qonunlar bilan birga, fuqarolik qonunchilik qoidalari (Fuqarolik kodeksining 1–4- va 6- bo’limlari), mulkchilik, er va er osti boyliklari, korxonalar va tadbirkorlik faoliyati to’g’risidagi umumiy qonun hujjatlari, shuningdek, aktsiyadorlik, bank, soliq va boj qonunchiligi muhim ahamiyatga egadir.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari tartibi O’zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida”gi qonunida mustahkamlangan. Ushbu qonun tashqi iqtisodiy aloqalardagi qatnashchilarning huquqlari, manfaatlari va mol-mulki xalqaro huquqning umumiy mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, himoya qilinishini ta’minlab, respublika iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga qo’shilishining huquqiy asosini yaratadi. Qonunni amal qilishi tashqi iqtisodiy aloqalarning barcha turlari va shakllariga, shu jumladan, iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy hamkorlikka, kadrlar tayyorlashga, tashqi va chegara savdosiga, sug’urtaga, bank, transport operatsiyalariga, turizm va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi boshqa faoliyatlarga tadbqiq etiladi.

Qonunga ko’ra, tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo’nalishlari quyidagicha belgilangan:

- xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- tashqi savdo faoliyati;
- chet el investitsiyalarini jalb qilish;
- O’zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati.

Qonun O’zbekiston davlat organlarining chet el sarmoyasiga nisbatan munosabatini belgilab beradi va xorijiy sheriklar bilan hamkorlik istiqbollari hisobga oladi, o’rnatilayotgan munosabatlarning barqarorligini kafolatlaydi. Chunki kapital qo’yilmalarining samaradorligi ko’p jihatdan tuzilayotgan bitimning amaliy tus olishiga bog’liqdir.

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 maydagi 232-sonli qarorida davlat boshqaruvi organlari va bozor infratuzilmasining kichik va o’rta biznesni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash bo’yicha vazifalari aniq belgilab berildi. Unda

jumladan, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga boshqa sub'ektlar qatorida kichik va o'rta tadbirkorlik sub'ektlarini ham tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchilari sifatida ro'yxatdan o'tkazish hamda ularga tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishlarida ko'maklashish vazifalari yuklandi.

Bozorni huquqiy qo'llab-quvvatlashni yanada rivojlantirish va mustahkamlash maqsadida amaldagi qonunlarga ularning qo'llanilishi amaliyoti nuqtai nazaridan doimiy ravishda tuzatish kiritish, yangi huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, bozor munosabatlari faoliyati sohasini kengaytirish va ularni mustahkamlash zarur. Bozorni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning muqobil sharti uning tizimi hisoblanadi. Qonunlar va qonunga asoslangan hujjatlarning qabul qilinishi o'zaro mustahkam aloqadorlikda bo'lishi va ijtimoiy yo'naltirilgan yaxlit bozor mexanizmining huquqiy tizimi tezroq tashkil etilishini jadallashtirishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, savdo-bozor munosabatlarining huquqiy bazasi iqtisodiy qonunlarga muvofiq kelmasligi mumkin emas. Bozor qonunlari turkumi o'zaro bog'langan bo'lishi va fuqarolik kodeksi bazisini qurishga muvofiq bo'lishi, tizimning xususiy huquq normalariga asoslanganligini kafolatlashi kerak.

Tashqi savdo faoliyati rivoji va uni tartibga solish ishlari asosan quyidagilardan iboratdir:

- tashqi savdoning eksport-import bitishuvlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashqi savdo uyushmalarining ancha cheklangan doirasi qo'lida jamlangan monopollashtirilgan tizimni tugatish;
- bir qancha sub'ektlar – tashqi savdo qatnashchilari, shu jumladan, vositachilar safini ancha kengaytirish;
- tashqi savdo aylanmasining tuzilmasiga va geografiyasiga e'tibor berish va markazlashtirilgan ta'sir ko'rsatishni yo'qotish;
- eksport va importning iqtisodiy qo'zg'atuvchilari – boj tariflari stavkalari va so'm kurslarini belgilash va ulardan foydalanish, shuningdek, ichki valuta bozorini tashkil etish;

- tashqi savdoni mablag' bilan ta'minlashda davlatning ahamiyatini kamaytirish, eksport va importning hisob-kitob-kredit servisi sohasiga tijorat banklarining so'mdagi va xorijiy valutadagi mablag'larini jalb qilish.

Bugungi kunda respublikada xalqaro moliyaviy hamkorlikda ishtirok etish uchun zarur huquqiy baza tayyorlangan. Valuta operatsiyalari ustidan davlat nazoratining bozor tamoyillariga javob beruvchi tizimi yaratilgan. Milliy valutani mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilgan va yagona to'lov vositasi sifatida uning rolini kuchaytirishga erishilgan. Valuta bozorining tashqi fond birjasini rivojlantirish uchun huquqiy shartlarni tashkil etish ta'minlangan.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF)ni dunyoviy andozalarga mos, zamon talablariga javob bera oladigan darajasini tashkil qilish maqsadida prezident farmoniga ko'ra, 2002 yilda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar agentligiga aylantirildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishning asosiy tamoyillari tartibi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi qonunda mustahkamlangan. Ushbu qonun tashqi iqtisodiy aloqalardagi qatnashchilarning huquqlari, manfaatlari va mol-mulkini xalqaro huquqlarning umumiy mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, himoya qilinishini ta'minlab, respublika iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishining huquqiy asosini yaratadi. Qonunning amal qilishi tashqi iqtisodiy aloqalarning barcha turlari va shakllariga, shu jumladan, iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy hamkorlikka, kadrlar tayyorlashga, tashqi va chegara savdosiga, sug'urtaga, bank, transport operatsiyalariga, turizm va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi boshqa faoliyatga tadbiq etiladi.

Chet el investitsiyalarini jalb qilish haqida "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi 2000 yil 26 maydagi Oliy Majlisning 77-11-sonli qaroriga ilova qilingan qonunning 12-moddasiga ko'ra ham bu xuddi shunday e'tirof etilgan va O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalarini amalga oshirish shakllari va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanishi qayd etilgan.

2005 yil 11 apreldagi O'zbekiston Respublikasi prezidentining "To'g'ridan to'g'ri xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi , 2006 yil 5 yanvardagi "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasidagi korporatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari sohani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ko'pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasida shu narsa kuzatiladiki, tashqi iqtisodiy aloqalarda bir yoki belgilangan ma'lum tarmoqlarni rivojlantirilishiga e'tibor qaratilmay, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni shakllantirish uchun, hududdagi mavjud barcha tarmoqlar qamrab olinishi lozim. Bu o'rinda rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan misol keltirishimiz mumkin. Masalan, 1950-1960 yillar davomida AQSH qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni intensivlashtirishga e'tibor qaratdi. Unda asosan, ekin maydonlariga ishlov berishning o'sha davrga xos zamonaviy usullarini tadbqiq etdi. Chorvachilikda esa, sohaga oid ilmiy yutuqlarni va texnologiyalarni qo'llash oqibatida, mahsuldorlikning tizimli o'sishiga erishdi. 1949 yildan 1963 yilga qadar ekin maydonlarini 24 mln. gektarga ya'ni, 17 foizga qisqartirgan, biroq shu yillar davomida mahsuldorlik 23 foizgacha o'sgan.

Bu to'g'risida o'sha yillardagi AQSH kongressi qishloq xo'jaligi komissiyasining qishloq xo'jaligi bo'yicha mutaxassisi doktor V.Vilkoks o'z ma'ruzasida axborot bergan.

Shu yillar davomida fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish mahsuldorligi loyihaga nisbatan 1,7 marta o'sganligi qayd etilgan. Shuningdek, shu davr mobaynida, qishloq xo'jaligida hosildorlik 67 foizga, chorvachilikning mahsuldorligi esa 31 foizga o'sgan.

Ular qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor bergan:

- qishloq xo'jaligi uskunalarining quvvatini oshirish;
- sun'iy va mineral o'g'itlardan keng masshtabda samarali foydalanish;

•dehqonchilikda urug'chilik va chorvachilikda naslchilikka jiddiy e'tibor berish;

•qishloq xo'jaligi zararkunandalari va begona o'tlarga qarshi kurashda kimyoviy vositalardan foydalanish;

•erdan foydalanishda sug'orish inshootlarini zamonaviy jihozlash;

•tannarxi arzon bo'lsada, mahsuldorligi yuqori bo'lgan ekinlarni etishtirish.

Albatta, o'sha davrlardagi AQSH tajribasi qishloq xo'jaligidagi islohotlar tarixida muhim yangilik bo'lmasligi mumkin, ammo bozor munosabatlariga asoslangan boshqaruvda ham davlat doimo islohotlar etakchisi bo'lib qolaverishiga e'tiborni qaratmoq lozim. Tashqi iqtisodiy aloqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti katta daromad keltirmaydi. Bunga misol tariqasida, so'nggi yillar davomida jahon bozorida paxta tannarxining tushib ketishini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va uni qayta ishlash, eksport munosabati valuta fondining ortishida katta xizmat ko'rsatmasada, mamlakat ichki iste'moli uchun olib kelinadigan mahsulotlar importini qisqartirishni, ichki iste'molini va ba'zi sohalarning mutloq mustaqilligini ta'minlaydi. Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida "G'alla mustaqilligi" xuddi shunday muammolardan biri edi.

Keyingi davrlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, sanoatni qishloqlarga olib kirish maqsadida, ko'plab qo'shma korxonalar tashkil etildi. Biroq, ko'pgina qo'shma korxonalar faoliyati faqatgina texnologik dastgohlarni keltirish hamda vositachilikni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Bunda qo'shma korxonalarning xorijiy ta'sischilari soha uchun zarur bo'lgan uskunalarni sotish va shu orqali daromad ortirishga intilmoqda. Lekin mahsulot iste'molchilarini izlab topish, iste'mol uchun yaroqli bo'lgan mahsulotlar turlari miqdorini kengaytirish masalasi doimo mahalliy tadbirkorlar zimmasida qolaveradi. SHuning uchun, kichik va o'rta biznes faoliyatini nazorat qilish maqsadida "monitoring" tizimi samarali tashkil etilishi lozim. Aks holda, qo'shma korxonalarning to'la quvvatlarda ishlashi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va ularni eksport

qilishga erishilmaydi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- hududlarda investitsiya faoliyati bilan shug'ullanadigan marketing tashkilotlarini tashkil etish;
- qishloq xo'jaligi sohasiga imkoniyat darajasida ko'proq investitsiyalar kiritish;
- hududlarda qo'shma korxonalarni tashkil etish uchun mahsulotning xom-ashyo zaxirasi, joyning geografik shart-sharoiti va istiqbollariga e'tibor qaratish;
- jalb qilingan investitsiya to'g'ri yo'naltirish yo'llarini ko'rsatish;
- investitsiya kiritiladigan hududlarning iqtisodiy imkoniyat va shart-sharoitlarini to'g'ri baholash;
- bozor talablari darajasidagi tovarlar ishlab chiqarish uchun mahalliy tadbirkorlarni mahsulotlarning raqobatbardoshligi, iste'mol qiymati, korxonalar faoliyatini kengaytirishga oid zamonaviy axborotlar va ko'rsatmalar bilan o'z vaqtida ta'minlash;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport imkoniyatlarini o'rganish talab etiladi.

Yuqorida ta'kidlaganlarimiz, tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, yangi turdagi mahsulotlarning paydo bo'lishi, aholi bandligining ta'minlanishi va hayotiy ehtiyojlarining qanoatlantirilishi bilan birga, qo'shni davlatlar ichki bozorlariga raqobatbardosh iste'mol talablarini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi.

2.2. Quyi Amudaryo tashqi iqtisodiy aloqalarida Qoraqolpog'iston respublikasining o'rni.

Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida hozirgi davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish va o'zaro integratsiya aloqalarini chuqurlashtirish yangi bosqichga ko'tarildi. Buni davlatimiz rahbarining qo'shni respublikalarga hamda chet davlatlar rahbarlari, shuningdek, ishbilarmon kishilarining mamlakatimizga tashrifi asnosida ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, Osiyo taraqqiyot banki prezidenti

X.Kurodaning mamlakatimizga tashrifi (2007 yil, 31 oktabr) va Shanxay hamkorlik tashkilotiga (SHHT) a'zo davlatlar rahbarlari kengashi majlisining Toshkent shahrida o'tkazilishi (2007 yil, 2 noyabr) O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro integratsiya jarayonlariga tabora chuqur kirib borayotganligidan dalolat beradi. Albatta, bunday tashriflar davlatlararo ikkitamonlama va ko'p tamonlama aloqalarning mustahkam huquqiy va iqtisodiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston bilan bir qator davlatlar orasida do'stlik, hamkorlik va sheriklik munosabatlari to'g'risida shartnomalar imzolangan bo'lib, bu ham o'z navbatida davlatlararo aloqalarning barcha sohalarida o'zaro yaqinlik va qulaylik shartlarini mujassamlashtiradi.

Keyingi yillarda O'zbekiston tashqi savdo geografiyasida yaqin xorij, xususan Markaziy Osiyo davlatlari yo'nalishiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bunda bir qator shart-sharoitlar majmuini, jumladan tarixiy, milliy va madaniy mushtaraklikni hisobga olish zarur. Markaziy Osiyo doirasida davlatlararo hamkorlikning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqarish kooperatsiyasini qayta tiklash, energetika, suv xo'jaligi hamda transport muammolarini birgalikda hal qilishdan iboratdir. Bu esa, davlatlararo tashqi savdoni rivojlantirish zaruriyatini tug'diradi. Markaziy Osiyo davlatlarining O'zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi atigi 10,0 foizga yaqinni tashkil etgani holda, birgina Rossiyaga uning 30,0 foizdan ortig'ining to'g'ri kelishi o'zaro ishlab chiqarish kooperatsiyasini yanada chuqurlashtirishni va mintaqa resurslar salohiyatini to'liqroq ishga solishni taqozo qiladi. O'zbekiston Markaziy Osiyo, shuningdek yaqin xorij davlatlari bilan iqtisodiyotning muhim tarmoqlari, jumladan, yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, moliya, infrastruktura, kichik biznesni rivojlantirish kabi sohalarda hamkorlik o'rnatishdan manfaatdordir.

O'zbekistonning chet davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarini amalga oshirishda uning ichki mintaqalarining salohiyati alohida ahamiyatga ega. Bunda esa kuchli ichki tafovutlarni kuzatish mumkin. Chunonchi, Toshkent mintaqasiga (Toshkent viloyati va Toshkent shahri) mamlakat jami tashqi savdo aylanmasining

54,3 foizi to'g'ri keladi (2006 yil). Bu ko'rsatkich 1994 yilda 70,7 foizni tashkil etgan (1-jadval). Unda o'ziga xos tendentsiyani ko'rish mumkin, ya'ni mintaqaning mamlakat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 1994-2006 yillarda 76,8 foizga kamaygani holda, uning tashqi savdo hajmi 3058,2 mln.AQSH dollaridan 5662,0 mln.AQSH dollariga yoki 185,1 foizga oshgan (shu yillarda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi deyarli 2,4 baravarga ko'paygan). Bu hol mamlakat tashqi savdo aylanmasida Farg'ona mintaqasi (12,5 foizdan 19,9 foizga), ayniqsa Zarafshon mintaqasining ulushi (5,9 foizdan 16,1 foizga) sezilarli oshganligi bilan izohlanadi. Bunda mazkur mintaqalarda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarning ko'plab barpo qilinganligi asosiy o'rin tutadi. Ayni vaqtda Mirzacho'l mintaqasining tashqi savdo aloqalardagi ishtiroki juda past (1,4 %) bo'lib, bu uning ishlab chiqarish kuchlarining sust rivojlanganligi hamda mintaqaga investitsiya salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayotganligini bildiradi. Mamlakat tashqi savdosidagi mintaqaviy tafovutlar bevosita eksport va importda ham kuzatiladi.

Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarida eng sust ishtirok etayotgan hududlardan yana biri bu Quyi Amudaryo mintaqasidir. Mazkur mintaqaga O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining atigi 2,2 foizi to'g'ri keladi. Vaholanki, Quyi Amudaryo O'zbekiston hududining 38,5 foizini, aholisining esa 12,0 foizdan ortiqrog'ini tashkil etgani holda, 3,2 % sanoat, 9,9 % qishloq xo'jalik mahsulotini beradi (2012 yil).

1-jadval

**O'zbekiston tashqi savdosining mintaqaviy tuzilishi
(mln. AQSH dollari)***

Mintaqalar	Tashqi savdo aylanmasi		Eksport		Import	
	1994 y.	2012 y.	1994 y.	2012 y.	1994 y.	2012 y.
O'zbekiston Respublikasi** shu jumladan:	4328.7 100.0	10429.6 100.0	2139.0 100.0	5577.9 100.0	2189.7 100.0	4851.7 100.0
Toshkent mintaqasi	3058.2 70.7	5662.0 54.3	1383.5 64.7	2854.0 51.2	1674.7 76.5	2808.0 57.9
Farg'ona mintaqasi	543.1 12.5	2070.4 19.9	344.7 16.2	1186.8 21.3	198.4 9.1	883.6 18.2
Zarafshon mintaqasi	253.9	1679.5	92.4	738.8	161.5	940.7

	5.9	16.1	4.3	13.2	7.4	19.4
Janubiy mintaqa	<u>174.7</u> 4.0	<u>568.8</u> 5.4	<u>158.8</u> 7.4	<u>422.5</u> 7.6	<u>15.9</u> 0.7	<u>146.3</u> 3.0
Mirzacho'l mintaqasi	<u>60.9</u> 1.4	<u>216.1</u> 2.1	<u>43.3</u> 2.0	<u>191.3</u> 3.4	<u>17.6</u> 0.8	<u>24.8</u> 0.5
Quyi Amudaryo mintaqasi shundan: Qoraqalpog'iston Respublikasi	<u>237.9</u> 5.5	<u>232.8</u> 2.2	<u>116.3</u> 5.4	<u>184.5</u> 3.3	<u>121.6</u> 5.4	<u>48.3</u> 1.0
Xorazm viloyati	<u>69.2</u> 29.1	<u>85.6</u> 36.8	<u>22.9</u> 19.7	<u>64.2</u> 34.8	<u>46.3</u> 38.1	<u>21.4</u> 44.3
	<u>168.7</u> 70.9	<u>147.2</u> 63.2	<u>93.4</u> 80.3	<u>120.3</u> 65.2	<u>75.3</u> 61.9	<u>26.9</u> 55.7

***Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan**

****Kasr suratida mutlaq ko'rsatkich, maxrajida mamlakat jamiga nisbatan ulushi**

Mintaqa tashqi savdo aylanmasida Xorazm viloyatining hissasi 70,9 foizni, eksport va importda esa, mos ravishda, 65,2 va 55,7 foizni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha Xorazm viloyatining ulushi 1994-2006 yillarda sezilarli kamaygan (tashqi savdo-89,1 %, eksport-81,2 %, import-90,0 %), biroq viloyatning mintaqa tashqi iqtisodiy aloqalaridagi faolligi Qoraqalpog'iston Respublikasiga nisbatan ancha yuqoriligicha qolmoqda. Agar 2006 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasining 14 ta tumanidan yarmi, ya'ni 7 tasi tashqi savdoda ishtirok etgan bo'lsa, Xorazm viloyatining barcha tumanlari bu borada faollik ko'rsatgan.

Mintaqa tumanlarining tashqi savdodagi ishtiroki darajasini 2-jadvaldan kuzatishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, tashqi savdodagi eng yuqori ko'rsatkich Xorazm viloyatining Urganch (18,9 mln.AQSH doll.), Qo'shko'pir (12,7 mln. AQSH doll.), Xazorasp (12,6 mln. AQSH doll.), Yangibozor (12,1 mln.AQSH doll.), Xonqa (11,7 mln.AQSH doll.), Bog'ot (10,8 mln.AQSH doll.) va Gurlan (10,1 mln.AQSH doll.) tumanlariga tegishlidir. Ularga mintaqa tumanlari tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdoning asosiy qismi (88,9 mln.AQSH doll.)- 70,1 foizi to'g'ri keladi. Xuddi shu tarzda 2-guruhdan ham Xorazm viloyatining qolgan tumanlari, ya'ni Xiva (9,9 mln. AQSH doll.), SHovot (9,7 mln.AQSH doll.) va Yangiariq (7,7 mln. AQSH doll.) tumanlari o'rin olib,

ularning ulushi 21,5 foizga teng. Demak, Xorazm viloyati tumanlarining mintaqa tumanlari tashqi savdosidagi umumiy salmog'i 91,6 foizga teng bo'lib, qolgan 8,4 % ulush Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdoda ishtirok etgan 7 ta tumani hissasiga to'g'ri keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't (3,4 mln.AQSH doll.), Beruniy (2,4 mln.doll.), Ellikqal'a (1,5 mln.doll.), Xo'jayli (1,4 mln.doll.), To'rtko'l (1,1 mln.doll.), Chimboy (0,7 mln.doll.) va Nukus (0,2 mln.doll.) tumanlari tashqi savdoda ishtirok etib, ularning barchasi tashqi savdo aylanmasi hajmi 5 mln.AQSH dollarigacha bo'lgan 3-guruhdan joy olgan. Shu bilan birga, Qoraqalpog'istonning Amudaryo, Kegeyli, Mo'ynoq, Taxtak'o'pir, Sho'manay, Qanliko'l, Qorao'zak kabi tumanlari, 2006 yil ma'lumotlariga ko'ra, tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirmagan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Xorazm viloyatiga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasida ichki hududiy tafovutlar kuchli va bu yaqqol ko'zga tashlanadi.

2-jadval

Quyi Amudaryo mintaqasi tumanlarini tashqi savdodagi ishtiroki bo'yicha guruhlashtirish (2012 yil)*

№	Guruhlar	Tumanlar		Tashqi savdo aylanmasi hajmi, mln. AQSH doll.	Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
		nomi**	soni***		
1.	Yuqori (10 mln.AQSH dollaridan ortiq)	Urganch, Qo'shko'pir, Xazorasp, Yangibozor, Xonqa, Bog'ot, Gurlan	7	88,9	70,1
2.	O'rta (5-10 mln.AQSH dollarigacha)	Xiva, Shovot, Yangiariq	3	27,3	21,5
3.	Past (5 mln. AQSH dollarigacha)	Qo'ng'iro't, Beruniy, Ellikqal'a, Xo'jayli, To'rtko'l, Chimboy, Nukus	7	10,7	8,4
			17	126,9	100,0

*Jadval O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**Jadvalga respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar kiritilmagan.

*****Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo, Kegeyli, Mo'ynoq, Taxtako'pir, Shumanay, Qanliko'l va Qorao'zak tumanlari ko'rsatilgan yilda tashqi savdoda ishtirok etmagan.**

Shu boisdan, Qoraqalpog'iston Respublikasida hududiy tafovutlarni yumshatishga va ayniqsa, Orolbo'yi hududida imtiyozli iqtisodiy zonani (shu jumladan, qulay investitsiya muhitini) shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shunday qilib, Quyi Amudaryo mintaqasining O'zbekiston tashqi savdo aloqalaridagi ishtiroki sust kechmoqda. Yaqin kelajakda Ustyurt foydali qazilmalarining xo'jalik jihatdan o'zlashtirilishi hamda mintaq turistik salohiyatidan oqilona foydalanish uning tashqi savdo faolligini ancha oshirishi mumkin.

Har qanday zamon va makonda mamlakat va davlatlarning har tamonlama rivojlanishi (iqtisodiy, ma'naviy- ma'rifiy, harbiy va boshqa sohalar) ularning tashqi aloqalari bilan chambarchas bog'liq. Shu jumladan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi ham uning tashqi savdo aylanmasi bilan xarakterlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasining hajmi mamlakat iqtisodiyoti rivojida o'z aksini topgan.

2012 yilda tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmiga nisbatan asosiy savdo sheriklari Xitoy 33%, Germaniya 14,6 %, Buyuk Britaniya 8,1%, Shvetsariya 6,4 %, Avstriya 5,7%, Italiya 4,1%, Fransiya 2,9 %, AQSH 2,5%, Polsha 2,5%, Belgiya 1,7 % ni tashkil qildi. Asosiy savda hamkorlari bo'lib yaqin xorijiy mamlakatlardan Rossiya (13,1 %) va Qozog'iston (1,0 %) hisoblanadi. Eksportdagi asosiy o'rinni paxta tolasi egallaydi, uning ulishi umumiy eksportga nisbatan 85,3 % , shundan uzoq xorij mamlakatlariga eksport 87,1 %, yaqin xorij malakatlariga 12,9 % ni tashkil qiladi. Import sturukturasida asosiy ulish mashina va asbob uskunalarga – 78,3 %, kimyo mahsulotlariga- 6,7 %, qora va rangli metallar – 5,9 %, oziq -ovqat mahsulotlari- 3,2 % ga tog'ri keladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida eksport va import ahvolini tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi manzaraga guvoh bo'lamiz. 2008 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida eksport 103853,5 AQSH do'llarini tashkil qilgan bo'lsa , 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich

90852,7 do'llarni tashkil etgan yoki 87,5 % ga tushganligini ko'rishimiz mumkin. Import salohiyatida quyida ahvolni ko'rishimiz mumkin. Masalan, 2008 yil import hajmi 64394,3 tashkil qilgan bo'lsa 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 24573,5 do'llarni tashkil etgan, yoki 38 % ga kamaygan.

Eksportni amalga oshiruvchi korxonalar soni 2008 yildan 2012 yilgacha 38 tadan 44 tagacha ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Bu degani eksportni amalga oshiruvchi korxonalarning 68 % ga ko'paydi demakdir. Shu jumladan hududiy eksportni amalga oshiradigan korxonalar soni ham oshganligini ko'rishimiz mumkin. Qoraqolpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining eksport tarkibi quyidagicha (xom-ashyo, mahsulotlar nomi):

- masalan qishloq xo'jalik mahsulotlari;
- paxta tolasi, engil sanoat mahsulotlari;
- xalq iste'moli mollari va boshqalar.

Qoraqolpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi paxta tolasi 2008-yilda 61242 ming.dollni tashkil qilgan bo'lsa 2012- yilga kelib bu ko'rsatkich 63036,0 ming. dollni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmi 2008- yilda 2178,7 ming.dollni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2012- yilga kelib 4421,8 ming.dollni tashkil qildi.Shunga o'xshash kimyo mahsulotlari, yoqilgi' mahsulotlari, qora va rangdor metallar,mashina va uskunalar va boshqa xizmatlar hajmini ham o'sganini ham ko'rishimiz mumkin.

3-jadval

Qoraqolpog'iston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2008 yil	2010 yil	2012 yil
Tashqi savdo aylanmasi	ming doll.	168247,8	132024,4	115426,2
Shundan:				
Eksport	ming doll.	103853,5	93761,2	90852,7
Shu jumladan hududiy eksport	ming doll.	7624,1	9512,2	10467,5
Import	ming doll.	64394,3	38263,2	24573,5
Eksportni amalga oshiruvchi	birlik	30	38	44

korxonalar soni				
Shu jumladan hududiy eksportni amalga oshiradigan korxonalar soni	birlik	13	15	14
Eksport tarkibi (xom-ashyo, mahsulotlar nomi) masalan qishloq xo'jalik mahsulotlari, paxta tolasi, engil sanoat mahsulotlari, xalq iste'moli mollari va x.k.				
paxta tolasi	ming.doll	61242	50260,1	63036,0
oziq-ovqat mahsulotlari	ming.doll	2178,7	2888,7	4421,8
kimyo mahsulotlari	ming.doll	1573,3	6128,4	6702,5
yoqilgi mahsulotlari	ming.doll	27611,3	21169,8	1597,6
qora va rangli metallar	ming.doll	0,1	-	24,6
mashina va uskunalari	ming.doll	1324,2	189,5	307,6
xizmatlar	ming.doll	9025,5	10360,6	10004,9
boshqalar	ming.doll	898,4	2764,1	4757,7

2.3. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining xalqaro munosabatlarida Xorazm viloyatining o'rni

Bugungi kunda hududda barcha sohalarda o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Ayniqsa, sanoat sohasida oxirgi besh yil mobaynida 40 foizdan ziyod o'sishga erishildi. Hozir vohada xorijiy investorlar ishtirokida 30 tadan ziyod qo'shma korxonalar faoliyat olib bormoqda. Shulardan 20 tadan ortig'i keyingi o'n yilda tashkil etildi. Viloyatda 2001 yilda paxta tolasining atigi 3 foizi qayta ishlangan bo'lsa, ayni paytga kelib bu ko'rsatkich 19 foizdan ziyodni tashkil qilmoqda. Shu o'rinda birgina Shovot tumanidagi Chig'atoy qal'a qishlog'ida barpo etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "Uztex Shovot" qo'shma korxonasi faoliyatini misol sifatida keltirish mumkin. Mazkur ip yigiruv fabrikasi jami 33 million AQSH dollari miqdoridagi investitsiya jalb qilish evaziga o'tgan yili barpo etildi. Ayni paytda fabrika yiliga 5 ming tonna yuqori sifatli kalava ip ishlab chiqarish quvvatiga ega. Kelgusida korxonaning ikkinchi va uchinchi bosqichlari ishga tushirilgach, bu erda 15 ming tonna paxta xom ashyosini qayta ishlash imkoniyati yaratiladi. Mahalliy yoshlar, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari zamonaviy texnologiyalarni boshqarib, paxta tolasini dunyo bozorida xaridorgir mahsulot-kalava ipga aylantirmoqdalar.

Ta'kidlash joizki, o'tgan yili viloyat iqtisodiyotida yangi davr boshlandi. Bunda Prezidentimizning 2012 yil 22 noyabrdagi "2013 — 2015 yillarda Xorazm viloyatining sanoat potentsialini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarori mahalliy sanoatning zamonaviy qiyofasini yaratish, viloyatda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksport qilishni ko'paytirishga qaratilgan muhim voqea bo'ldi. Unga asosan, 2013-2015 yillarda viloyatda jami 253 ta yangi loyiha amalga oshirilishi, viloyat iqtisodiyotiga 462 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilish, natijada qariyb 9 mingta ish o'rni yaratishdek katta vazifalar belgilab berildi. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida jami 120 million AQSH dollarilik 213 ta loyiha amalga oshirilishi va 2270 ta yangi ish o'rni tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Shu paytgacha viloyatda sanoat sohasida, asosan, engil sanoat hisobidan o'sish kuzatilar edi. Endilikda hududda mashinasozlik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, elektr tovarlari va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi tarmoqlar ham rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratildi. Birgina Hazorasp tumanining Pitnak shaharchasida yiliga 40 ming dona "Damas" rusumli avtomashinalar, Urganch tumanidagi "Xorazmtek" korxonasida televizorlar, Xiva tumanida muzlatkichlar, Urganch shahrida zamonaviy ekskavatorlar kabi o'nlab yangi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Shu bugungacha viloyatda 150 turdagi sanoat mahsulotlari tayyorlanar edi. Endilikda yana qo'shimcha 45 turdagi yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga joriy etilayapti. Bunday ulkan loyihalarning hayotga tatbiq qilinishi, hududda yirik sanoat korxonalari bunyod etilishi 2015 yilga borib viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi nisbatan 2,1 barobarga o'sishini ta'minlaydi.


Shu yilning birinchi yarim yilligida viloyat bo'yicha 776 ta loyiha amalga oshirilib, ishlab chiqarishga 76,6 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritildi. Hududiy korxonalar tomonidan 5,4 million AQSH dollari miqdorida eksport amalga oshirildi. 30,7 ming ish o'rni yaratildi. Hozir viloyatda 10 ming 642 ta tadbirkorlik sub'ekti faoliyat olib borayapti. Tadbirkorlar ishlab chiqarayotgan

mahsulotlar viloyat yalpi hududiy mahsulotining 60 foizidan ortiqni tashkil etmoqda. Joriy yilning birinchi yarmida tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga 148,9 milliard so'm kredit mablag'lari ajratilgani sohaga e'tibor va g'amxo'rlik beqiyos ekanligini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi 2011 yilning 31 oktabridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1633-sonli «2012-2015 yillarda respublika oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va uni boshqarishni tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda ta'sischi umumiy yig'ilishining birlashish to'g'risidagi qaroriga asosan «YOg'-moy va oziq-ovqat sanoati» va «Go'sht-sutsanoati» uyushmalarining birlashtirilishi orqali tashkil etildi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va iste'mol tovarlari Kompleksining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, O'zbekistondagi rivojlangan sanoat birlashmalaridan bir hisoblanadi. Respublikada ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarining 38-40 foizi uyushma korxonalari tomonidan tayyorlanadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi tarkibiga o'simlik yog'i, yog'-moy, alkogolsiz pivo, tamaki mahsulotlari, go'sht-sut mahsulotlari, meva-sabzavot konservalari, qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar kiradi, shu bilan birga o'simlik yog'i, xo'jalik sovuni hamda shakar kundalik hayot uchun zarur bo'lgan birinchi darajali ehtiyoj mollari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, iqtisodiy xavfsizlikning, respublika oziq-ovqat mustaqilligining muhim bosqichlarini belgilab beradi. Shuningdek, uyushma tarkibiga ichki tarmoq kooperasiyasida ish va xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar ham kiradi.



Sut va sut mahsulotlari, go'sht va go'sht mahsulotlari, meva-sabzavot konservalari, o'simlik yog'i, yog'-moy, alkogolsiz pivo, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish mahalliy xom ashyo hisobiga amalga oshiriladi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida yog'-moy va oziq-ovqat sanoati tizimini takomillashtirish yuzasidan ko'pgina ishlar amalga oshirildi. 1994 yilda o'tkazilgan iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni korxonalarni xususiylashtirish imkonini yaratdi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni ko'paydi, tarmoqda yirik korxonalar bilan bir qatorda xususiylashtirishning turli ko'rinishidagi kichik biznes sub'ektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu respublikada ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'rinli joylashtirish va tarmoqda ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish imkonini berdi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasi tarkibiga barcha korxonalar ixtiyoriy ravishda kirishgan. Quyidagilar oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi:

- uyushma tarkibiga kiruvchi yog'-moy, go'sht-sut va oziq-ovqat sanoati korxonalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning manfaatlari ifoda etilishi va huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, qayta ishlash korxonalari, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari, tayyorlov va savdo tashkilotlari o'rtasida zamonaviy bozor munosabatlarini tarmoqda keng joriy qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- oziq-ovqat mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarini marketing jihatidan tadqiq etilishini tashkil qilish, tarmoqni rivojlantirishning o'rta va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda qatnashish, xomashyoni chuqurroq qayta ishlashda va sifatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishda tarmoq korxonalariga ko'maklashish, ular bilan ichki bozorni yanada ko'proq to'ldirish hamda eksportga etkazib berishni oshirish;

- oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ilg'or xalqaro tajribani har tomonlama o'rganish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash hamda texnik jihatdan qayta jihozlashda, yuqori unumli zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishda, mazkur maqsadlar uchun investitsiyalarni, avvalambor, to'g'ridan-to'g'ri

xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishda yog'-moy, go'sht-sut va boshqa oziq-ovqat sanoati korxonalariga ko'maklashish; tarmoq korxonalariga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashda, butun jahonda qabul qilingan uning sifatini baholashning zamonaviy tizimlarini joriy etishda ko'maklashish;

- yog'-moy sanoati korxonalarining chigit yetishtiruvchilar bilan o'zaro munosabatlari mexanizmini yanada takomillashtirish, chigitni qabul qilish, qat'iy hisobga olish, shuningdek, uning sifatini ta'sirchan nazorat qilish masalalari ham shu jumlagi kiradi. Tarmoq korxonalari tomonidan paxta yog'i chiqishining belgilangan normalariga, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotishda zarur tartibga rioya qilinishini ta'minlash;

- tarmoq korxonalariga axborot xizmatlarini ko'rsatish, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari uyushmasining tashkiliy va ijroiya apparati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yilning 31 oktabridagi PQ-1633-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Hozirgi kunda uyushma tarkibida 180dan ortiq yog'-moy, go'sht-sut, meva-sabzavotmahsulotlarini qayta ishlash va boshqa oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyat yuritmoqda. Ularda mingdan ziyod turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'simlik yog'lari, margarin, shakar, mineral suvlar, qandolatchilik, sut, go'sht va meva-sabzavot konserva mahsulotlari tayyorlanmoqda.

Xorazm viloyati iqtisodiyoti tarmoqlariga 2012 yilda 51,2 mln. dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Shuning 12,3 mln dollari yoki 24 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Xorijiy investitsiyalar mavjud sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va telekommunikatsiyani rivojlantirish uchun yo'nalitilgan. Hududiy investitsiya dasturi doirasida esa jalb qilingan xorijiy investitsiya miqdori 15,1 mln.dollarga teng bo'ldi. Uning 63 foizi yoki 8,8 mln. dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'lib, bu mablag' olti loyihani

amalga oshirishga sarflandi. "UZTEX SHOVOT" O'zbekiston-Shveytsariya qo'shma korxonasida ip-kalava ishlab chiqarishni tashkil qilish loyihasi (6386,1 ming dollar), "Xorazm shakar" qo'shma korxonasini modernizatsiya qilish loyihasi (3172,0 ming dollar), "Wecan Agrotexservis" qo'shma korxonasida qishloq xo'jalik mahsulotlarini quritish loyihasi shuldar jumlasidandir. 2013 yilning birinchi yarim yilligida Hududiy investitsiya dasturi doirasida 5,8 mln. dollar xorijiy investitsiya jalb qilinib, 10 ta loyiha amalga oshirildi. Uning 3,4 mln. dollari (59%) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar. Yaratilgan yangi ishchi o'rinlarining soni 100 ga yaqin. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosan Urganch shahrida kir yuvish kukuni ishlab chiqarish bo'yicha tashkil etilayotgan "Billur integral servis" MCHJ shaklidagi qo'shma korxonasini tashkil qilish uchun (750,0 ming doll), "Xorazm shakar" qo'shma korxonasini modernizatsiya qilish (1264,1 ming doll.), "Long Sight Construction" MCHJ shaklidagi O'zbekiston-Daniya qo'shma korxonasida qurilish-pudrat ishlarini tashkil etish (1110,0 ming doll.) jalb qilindi. 2012 yilda 3 ta qo'shma korxona tashkil qilingan bo'lsa, joriy yilning 1-yarim yilligida yangidan 4 ta qo'shma korxona tashkil qilindi. Ular asosan Xitoy, Shveytsariya va Daniya davlatlarining investorlari ishtirokida tashkil qilindi.

Joriy yil yakuniga qadar viloyatda yana yana 7 ta qo'shma korxona tashkil qilinishi va 10 mln. dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilinish ko'zda tutilgan. Viloyatda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsuloti hajmida xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar ulushi ortib bormoqda. 2012 yil yakunida viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ulushi 11,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning 1-yarim yillik yakunida 16,7 foizni tashkil qildi.

Qo'shma korxonalar tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi viloyat jami eksporti hajmining (paxta tolasini hisobga olmagan holda) 35,7 foizini tashkil qiladi. Qo'shma korxonalar tomonidan ip-kalava, gigroskopik paxta, xo'jalik sovuni kabi mahsulot hamda turistik xizmatlar eksporti amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov rahnamoligida mamlakatimizda sanoatni har tomonlama rivojlantirish, bu yo'nalishda yangi zamonaviy korxonalarni tashkil etish va ishga tushirish, davr talabi asosida mahsulotlar ishlab chiqarish borasida keng miqyosda amaliy ishlar jadal sur'atlar bilan davom etmoqda. Yurtboshimizning "2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi Qarori asosida viloyatimizda 300 dan ziyod istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi. Mazkur qaror asosida 2014 yilning birinchi choragida 20 ga yaqin loyihalar hayotga tadbqiq etilib, yangi ish o'rinlari yaratildi.

Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 martdagi 184-f sonli farmoyishiga asosan "Urganch ekskavator" ochiq aktsiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarish potentsialini oshirish, yangi ish o'rinlarini ochish maqsadida jamiyatning aktsiyalar soni 223775 donadan 1264928 donagacha oshirildi. Korxona aktsiyalarining 95,4 foizi "O'zbekiston temir yo'llari" DATK tasarrufiga o'tkazildi. Bu esa korxona faoliyatini yanada takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etdi va qisqa vaqt mobaynida iqtisodiyotning muhim tarmoqlari uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Jumladan, "Urganch ekskavator" ochiq aktsiyadorlik jamiyati korxonasida "Gidravlik ekskavatorlar va ularga ehtiyot qismlar ishlab chiqarish va ta'mirlashni tashkil etish" loyihasi ham amalga oshirildi. Ushbu loyiha doirasida 15 mln. dollarlik investitsiya mablag'lari o'zlashtirilishi belgilangan. Bugungi kunda loyiha bo'yicha 17,56 mlrd. so'm atrofida ishlar bajarildi.

SHuningdek, korxona tizimidagi muhandislik tarmoqlari tubdan ta'mirlandi va oqava suv inshootlari yangidan o'rnatildi, hududdagi temir yo'llar yangilandi, yuk ko'tarish moslamalari kapital ta'mirdan chiqarildi.

Korxonaning dastlabki er maydoni 4,7 gektarni tashkil etgan bo'lib, u yanada kengaytirildi. YA'ni obodonlashtirish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish maqsadida 6,06 gektarga kengaytirildi. Korxona hududida 20 ming kv. metrdan ziyod maydonlar obodonlashtirilib, daraxtlar ko'chatlari, gullar ekildi va 15 ming kv. metr ga yaqin hudud maydoniga asfalt qoplamasi yotqizildi, atrofga zamonaviy

yoritkichlar o'rnatildi. Korxonadagi uch qavatli ma'muriy ishlab chiqarish binolari rekonstruktsiya qilindi. Bosh ishlab chiqarish binosida ham tubdan ta'mirlash ishlari bajarildi. Muhandislik, kommunikatsiya tizimida talablar darajasida amaliy ishlar yakun topdi.

Prezidentimizning 2014 yil 10 yanvarda qabul qilingan "CHet el investitsiyalari bilan "UzXCMG" qo'shma korxonasini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga asosan "UzXCMG" qo'shma korxonasi tashkil qilindi. Ushbu qo'shma korxonaning asosiy faoliyat turini "UzXCMG" markasi ostida gidravlik ekskavatorlarni va boshqa qurilish texnikalarini ishlab chiqarishni tashkil etadi.

Bizning korporatsiya 100 turdan ortiq qurilish, melioratsiya va tog' texnikalari ishlab chiqaruvchi dunyodagi yirik ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. "XCMG" ayni damda Amerika, Germaniya va Yaponiyaning "Katerpiller", "Libxerr", "Tissen Grupp" va "Kawasaki" kabi 160 yirik kompaniyalari bilan hamkorlik o'rnatgan bo'lib, uning ishchilari soni 26000 nafar, ilmiy xodimlari soni 2000 nafardan ortadi.

Urganchda ish boshlagan "UzXCMG" mas'uliyati cheklangan jamiyati qo'shma korxonasining asosiy vazifasi "UzXCMG" mahsulot belgisi hamda "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" tamg'asi ostida gidravlik ekskavatorlar va boshqa qurilish uskunalari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda ularga ehtiyot qismlar va komplektatsiyalar etkazib berish hisoblanadi.

Ushbu korxona "Urganch ekskavator" OAJ hududida tashkil etilganligi uchun bu korxonaning 10 nafar mutaxassisi "XCMG" korporatsiyasining ekskavator ishlab chiqaradigan zavodida o'zlarining malaka va tajribalarini oshirib, sertifikat olib qaytadilar. Endilikda mahalliy yoshlar soha bo'yicha kasb mahoratlarini yanada oshiradilar.

2014 yil 10 mayda viloyatda "UzXCMG" qo'shma korxonasi ochildi. Ushbu korxona ochilish marosimida tegishli vazirlik va idoralar, O'zbekiston temir yo'llari DATKning mas'ul xodimlari, "Xuzhou Construction Machinery Group" kompaniyasining vakillari, qo'shma korxona ishchi-xizmatchilari, soha

mutaxassislari, keng jamoatchilik vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok qildilar.

Ta'kidlandiki, ayni paytda "O'zbekiston temir yo'llari" DATK aktsiyadorlik kompaniyasi respublikamiz hududida aholiga yuksak darajada xizmat ko'rsatish bilan birga infratuzilma, transport va kommunikatsiya qurilish va bunyodkorlik ishlarini muntazam ravishda amalga oshirilmoqda. SHuningdek, Xorazm viloyatining o'zida qurilish, rekonstruktsiya ishlarini izchil ravishda olib bormoqda. Urganch temir yo'l vokzali tubdan rekonstruktsiya qilinib, zamonaviy sayyohlik inshootiga aylantirildi. Vokzal qisqa muddatda jahon talablariga javob beradigan darajada rekonstruktsiya qilinib, kutish va kuzatish zallari o'rindiqlar, ona va bolalar uchun dam olish xonalari chiroyli mebellar bilan jihozlangan. Bu yerda tibbiy xizmat ko'rsatish xonasi kecha-yu kunduz yo'lovchilar xizmatida. Temir yo'l vokzali hududida olib borilgan obodonlashtirish, qurilish, rekonstruktsiya ishlaridan so'ng vokzal atrofidagi go'zallik barchaning hayrat, quvonchini oshirmoqda.

Shuningdek, Shovot kanalining Urganch shahrini kesib o'tuvchi qismi to'liq betonlashtirilib, atrofida yashil hudud, sayyohlar uchun to'rtta mehmonxona, milliy va xorijiy uslubdagi restoranlar, ko'ngilochar maskanlar, bolalar va kattalar uchun sport maydonchalari, sayyohlar va aholining dam olishi uchun qayiqlar to'xtash joylarini barpo etilda jamoa a'zolarining hissasi katta.

"O'zbekiston temir yo'llari" DATKning Shovot tumanida "Temir yo'l obod" chorvachilik va parrandachilik majmuasi qurib ishga tushirildi. Ayni kunda bu erda 1300 dan ziyod naslli qoramol, 35 ming bosh tovuq boqilib, go'sht, sut mahsulotlari yilning to'rt faslida ham ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, kuniga 30 ming donadan ziyod tuxum aholi dasturxoniga etkazib berilmoqda.

Majmuadagi 950 gektar urning 50 gektarida yangidan bog'lar yaratildi. 100 gektaridan ziyodiga eski beda, 700 gektarga yaqin maydonga sabzavot, poliz ekinlari ekildi. Ayni paytda mazkur jamoaning o'zida 250 nafar mahalliy yoshlar faoliyat ko'rsatmoqda. YAqin kunlarda bu erda sutni qayta ishlash zavodi ishga tushadi.

"O'zbekiston temir yo'llari" DATK tomonidan viloyat markazida shu kunlarda ham obodonlashtirish, qurilish, yaratish ishlari amalga oshirilmoqda. Viloyat markazida "UzXCMG" qo'shma korxonasining ish boshlashi ham sanoat salohiyatini har tomonlama yuksaltirish imkonini beradi.

Istiqlolimiz sharofati bilan yurtimizda amalga oshirilayotgan ulug'vor ishlar, istiqbolli loyihalar, tashabbuslar va ularning quvonarli samaralari yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bugun nafaqat Urganch shahriga, shuningdek, vohaning tumanlariga, chekka qishloqlariga ham ilm-fan yutuqlari, yangi texnologiyalar, sanoat yildan yilga tez sur'atlar bilan kirib bormoqda.

Prezidentimizning "2013-2015 yillarda Xorazm viloyati sanoati salohiyatini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi, "Urganch shahrining bosh rejasini amalga oshirish, obodonlashtirish ishlarini va Xorazm viloyati aholisining ichimlik suvi ta'minotini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari bugun izchil ravishda bajarilmoqda. Viloyatda yangi tur mahsulotlar "Damas", "SHevrole Orlando" avtomobillari ishlab chiqarish bilan birga yangi korxonalar barpo etilib, avtomobillar uchun zarur vositalar, jihozlar ham tayyorlanyapti va kasb-hunar kollejlarini bitkazgan yoshlar bu mehnat jamoalarida faoliyat yuritishmoqda.

Ayni paytda "UzXCMG" mas'uliyati cheklangan jamiyati qo'shma korxonasida to'la aylanuvchi (buriluvchi) zanjirli va g'ildirakli gidravlik ekskavatorlarning dastlabki 10 donasi yig'ilgan. 2014 yilning oxiriga qadar yana 200ga yaqin gidravlik ekskavatorlar tayyorlash rejalashtirilgan. Kelajakda qo'shma korxona to'la quvvat bilan ishlay boshlaganidan so'ng mazkur ko'rsatkichning yanada ortishi kutilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozim, mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona siyosat tufayli Markaziy Osiyo mintaqasida, aynan O'zbekiston Respublikasida og'ir mashinasozlik asoslari yo'lga qo'yilgan. "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aktsiyadorlik temir yo'l kompaniyasining sanoat korxonalari tomonidan yiliga 1000ga yaqin yangi yuk va 50ga yaqin yo'lovchi vagonlari ishlab chiqarilmoqda. Bundan tashqari 800 tadan ortiq yuk va 20 taga yaqin yo'lovchi vagonlari kapital

ta'mirdan chiqarilib, ularning xizmat ko'rsatish muddati yana ham uzaytirilmoqda. Qolaversa, bir yilda 300 ga yaqin vagonlar zamonaviylashtirilyapti. Hozirgi paytda kompaniya tarkibida 7 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, endilikda ularning tarkibiga "UzXCMG" MCHJ qo'shma korxonasi ham qo'shildi.

Urganchdagi qo'shma korxona tomonidan ushbu yilda 200 ga yaqin ekskavator ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Korxona to'liq quvvat bilan faoliyat yurita boshlagach 400 nafardan ziyod xorazmlik yosh ish bilan ta'minlanadi.

XULOSA

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda unda iqtisodiy aloqalarning o'rni va ahamiyati, iqtisodiyotning rivojlanishida hududlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini o'rganishda rivojlanishga tasir ko'rsatuvchi iqtisodiy omillarni tahlil etish imkonini beradi. Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalari va iqtisodiyotning rivojlanishini tadqiq etish orqali esa, shu omillar ancha aniq namoyon bo'ladi. Chunki mamlakatda sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish hamda uni tashqi bozorga olib chiqish u orqali foyda olishning samarali yo'llarini izlab topishni talab etadi.

Mamlakat sug'orish inshootlari, transport tarmoqlari bilan bir tekis ta'minlangan emas. Bu o'z navbatida xo'jalik yuritishda va shu orqali tashqi aloqalarda ko'pgina muammolarni keltirib chiqaradi. Mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarini kompleks o'rganish joylardagi aholi bandligi, hududlarning ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvi kabi jarayonlarni tahlil etishda qulaylik yaratadi. Shuningdek, iqtisodiy aloqalarni kichik hududlarga ajratib o'rganish orqali mamlakatdagi qishloq xo'jaligi va sanoati mahsulotlarining tashqi bozorga chiqishidagi hududiy tafovutlar yaqqol namoyon bo'ladi va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish imkonini beradi.

Respublika iqtisodiy aloqalarida ularni rivojlantirishning muhim ahamiyatga ega vazifalar quyidagilar:

- erlarning meiorativ holatini yaxshilash va hosildorlikni oshirish uchun investitsiyalar jalb qilish yo'llarini izlash hamda mavjudlarini kengaytirish;
- qishloq xo'jaligida etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini yaxshilash va zamon talablariga javob beradigan ko'rinishda qadolashni yo'lga qo'yishni rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini quritish orqali sifatini buzmaganda holda iste'molchiga etkazib berishni tashkil etish;
- sanoat mahsulotlarini jahon talablari darajasida tayyorlash va boshqalar.

Ma'lumki, fermer xo'jaliklari bugungi kunda qishloq xo'jaligining eng quyi va qishloq xo'jaligi mahsuldorligini belgilovchi bo'g'in sifatida shakllanmoqda. Mamlakat iqtisodiy aloqalarida fermer xo'jaliklarining to'g'ridan to'g'ri o'zi etishtirgan mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishini tashkil etish va ularni rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish va ularga xizmat ko'rsatuvchi lizing korxonalarini shakllantirish;
- selektsiya va meleoratsiya ishlarida xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni shakllantirish va mavjudlarini takomillashtirish;
- fermer xo'jaliklarida etishtiriladigan mahsulotlarni qayta ishlash mahalliy reja va dasturlarini ishlab chiqish va boshqalar.

Bugungi kunda qo'shma korxonalarni tashkil etish – hududlarga xorij sarmoyalarini olib kirishning eng qulay va samarali usuliga aylandi. Biroq, qo'shma korxonalarni tashkil etishda eng birinchi omil xom ashyoning mavjudligi va zahirasidir. Mamlakatda tashkil etilayotgan qo'shma korxonalarning aksariyati engil sanoat, jumladan, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati bilan bog'liq. Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, respublika eksportida engil sanoat mahsulotlaridan keyingi o'rinni oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etadi. Agarda, shu sohadagi qayta ishlash sanoati korxonalari soni ortsa, eksportbop mahsulot salmog'i ham ortadi hamda qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Bu o'z navbatida eksport ko'rsatkichlarining ortishiga olib keladi.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidagi qo'shma korxonalarning tashkil etilishi orqali ko'pgina vazifalar o'z echimini topadi. Bular:

Birinchidan, iqtisodiy rayonida aholi sonining ko'pligi va zich joylashganligi va uni ish bilan ta'minlashning dolzarbligi. Tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan aholini ish bilan ta'minlash, munosib turmush sharoitlarini yaratib berish va turmush sifatini o'rttirish;

Ikkinchidan, viloyatlar kesimida mehnatga layoqatli, qulay mehnat sharoitlarida ishlashni hohlaydigan mahalliy yoshlarning bandlik darajasini oshirish;

Uchinchidan, iqtisodiy rayonidagi kadrlarning malakasi va ishbilarmonlik xususiyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish uchun ishchi kadrlar va mutaxassislarining malakasini oshirish;

To'rtinchidan, hozirgi kundagi ilmiy-texnika taraqqiyotining ustuvor maqsadlariga javob beruvchi ishlab chiqarishlarni ustuvor darajada rivojlantirish;

Beshinchidan, iqtisodiy rayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturani rivojlantirish; ishlab chiqarish tarmoq tarkibini yaxshilash, viloyatda ishlab chiqarishning hududiy tarkibini takomillashtirish va hokazolar hisoblanadi.

Qo'shma korxonalarni joylashtirishda quyidagi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillarini nazarda tutish talab etiladi:

- mehnatni ko'p talab qiluvchi, material va energiyani kam talab etuvchi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish kerak;
- qo'shma korxonalarni rivojlantirish ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or tarmoq va hududiy shakllarini hisobga olgan holda amalga oshirilish kerak;
- ilmnini ko'p talab qiluvchi qo'shma korxonalar va ularning filiallarini rivojlantirish kerak;
- qo'shma korxonalarni boshqarishni takomillashtirish talab etiladi. Bunda: respublika hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mos ravishda qo'shma korxonalarni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga e'tiborni kuchaytirish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rayoni tashqi iqtisodiy aloqalari iqtisodiy rivojlanishni belgilovchi muhim yondoshuvlardan biridir.

Asosiy e'tibor tashqi iqtisodiy aloqalarning hududlarga nisbatan qulay tabiiy, iqtisodiy geografik o'rniga va ishlab chiqarish imkoniyatlari va istiqbollari qaratildi va tahlil etildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub'ektlari huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar tugrisida»gi Farmoni. Xalq so'zi, 2005, 16 iyun.
2. I.A.Karimov “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 2005, 29 yanvar, 20 son.
3. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik va rivojlanish kafolatlari. T.: Sharq, 1997.
4. Dj.D.Daniels va L.X. Radeba. «Международный бизнес» М., «Дело LTD», 1994.
5. B.Dj. va D.A. Riks. «Международный бизнес», Boston, «PVS-KENT», 1996.
6. S.S.Gulyamov., Yu.T.Dadaboev «Международный бизнес». T.: YAngi asr avlodi, 2001.
7. Gurova I.P. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya. Testы, uprajneniya, problemnyye situatsii. M.: Delo, 2003.
8. Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik pod red.B.M.Smitienko. M.: Yur kniga, 2004.
9. Riks, Devid A. Proshchety v mejdunarodnom biznese. M.: Izdatelskiy dom «Vilyams», 2004.
10. Ulin B. Mejregionalnaya i mejdunarodnaya trgovlya. M.:Delo, 2004.
11. Daniltsev A.V. Mejdunarodnaya trgovlya. Instrumentы regulirovaniya. Uchebno-prakticheskoe posobie. M.:Delovaya literatura, 2004.
12. Dyumulen I.N. Vsemirnaya trgovaya organizatsiya. M.:ZAO Ekonomika, 2003.
13. Michael R.Czinkota, Ilkka A. Ronkainen, Michael H. Moffet “International business. Update 2000, The Druben Press, Orlando 2000.

14. Charles W.L.Hill Global business today. Postscript 2003 with CD, MAP. New York, 2003.

15. <http://www.uza.uz.business>; <http://www.oecd.org>;
<http://www.nafta.org>; <http://www.eurunion.org>; <http://www.uncatad.org>;
<http://www.wapec.org>;
<http://www.caricom.org>; <http://www.aseansec.org>;